

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Qo`lyozma huquqida

Шарипов Шахриддин Зиёдуллаевич

**XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARI XALQARO
MUNOSABATLARDA SHARQ MAMLAKATLARI**

(Abdurauf Fitratning siyosiy asarlari misolida)

**5A 140601 Tarix mutaxassisligi
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: falсафа фанлари номзоди,

доцент, Р.Ражабов

Navoiy - 2009

Navoiy davlat pedagogika instituti

Magistratura bo`limi 5A 140601 tarix mutaxassisligi 2 bosqich magistri Шарипов Шахриддин Зиёдуллаевичнинг **XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARI XALQARO MUNOSABATLARDA SHARQ MAMLAKATLARI (Abdurauf Fitratning siyosiy asarlari misolida)** mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi ishiga reyting qaydnomasidan ko`chirma, magistrlik dissertatsiya ishi rahbarining xulosasi, kafedraning ishni himoyaga tavsiya etish haqidagi xulosasi, taqrizlar ilova qilinadi.

Magistratura bo`limi boshlig'i:

f.f.n. K.N.Qodirov

Navoiy davlat pedagogika instituti

Magistratura bo`limi 5A 140601 tarix mutaxassisligi 2 bosqich magistri Шарипов Шахриддин Зиёдуллаевич **XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARI XALQARO MUNOSABATLARDA SHARQ MAMLAKATLARI (Abdurauf Fitratning siyosiy asarlari misolida)** mavzusidagi magistrlik dissertatsiya ishi kafedraning yig'ilishida muhokama qilingan va Davlat attestasiya komissiyasida himoyaga tavsiya etiladi .

Kafedra mudiri:

t.f.n M.Yo`ldosheva.

Navoiy davlat pedagogika instituti
“O`zbekiston tarixi” kafedrasining 2009 yil 28 maydagi
№ 16 - majlis qaroridan
Ko`chirma
Qatnashdilar:
Kafedraning barcha a`zolari (9 kishi)

Kun tartibida:

3. Magistrlik dissertatsiya ishi muhokamasi .

Eshitildi:

So`zga kafedra mudiri M.Yo`ldosheva chiqib, magistrlik dissertatsiyasi davlat standartlari talabiga muvofiq tayyorlanganligi, ilmiy rahbar va tashqi taqrizlar ijobiyliги, kerakli hujjatlar rasmiylashtirilganligini ta`kidlab o`tdi.

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi bo`yicha tarix fanlari doktori, professor M.Oltinov, dots. Sh.Muhammadiyev, kat.o`q E.Do`smatov, F.Polvonova, A.Aminovalar o`z fikr–mulohazalarini bildirdilar.

Shundan so`ng magistratura bo`limi 5A 140601 tarix mutaxassisligi bitiruvchisi Шахриддин Шарипов o`z mavzusi –magistrlik dissertatsiya ishining, dolzarbligi, maqsadi, vazifalari va tadqiqot ishlari bo`yicha bajargan ishlari hamda xulosa va tavsiyalarni izohlab berdi. Magistrlik dissertatsiyasi ishining bajarilishi yuzasidan berilgan savollarga javob berdi .

Majlis qaror qiladi:

1. Magistratura bo`limi 5A 140601 tarix mutaxassisligi magistri Шарипов Шахриддин Зиёдуллаевичning **XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARI XALQARO MUNOSABATLARDA SHARQ MAMLAKATLARI (Abdurauf Fitratning siyosiy asarlari misolida)** mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi tugallangan ish deb hisoblansin.
2. Magistrlik dissertatsiyasi ishi himoyaga tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:

t.f.n. M.Yo`ldosheva.

Navoiy davlat pedagogika instituti

“O`zbekiston tarixi ” kafedrasining 2007 yil 26 – sentyabr`

№ 2 - sonli qaroridan

Ko`chirma:

Qatnashdilar: Kafedraning barcha a`zolari (9 kishi)

Kun tartibi:

2007-2008 o`quv yilida Navoiy davlat pedagogika instituti magistratura bo`limi 5A 140601 tarix mutaxassisligi magistri Шахриддин Шапуноёning magistrlik dissertatsiyasi mavzusini tasdiqlash to`g`risida

Eshitildi:

So`zga kafedra mudiri M.Yo`ldosheva chiqib, kafedra a`zolarini magistrlik dissertatsiyasi ishi mavzusi bilan tanishtirdi va mavzuning dolzarbligi, bugungi kundagi ahamiyatini hisobga olib **XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARI XALQARO MUNOSABATLARDA SHARQ MAMLAKATLARI (Abdurauf Fitratning siyosiy asarlari misolida)** mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi ishi mavzusini tasdiqlashni tavsiya qildi. Yig`ilishda dots. tarix fanlari doktori, professor M.Oltinov, dots. Sh.Muhammadiyev, kat.o`q E.Do`smatov, F.Polvonova, A.Aminovalar mavzuning mazmun-mohiyati haqida o`z fikr–mulohazalarini bildirdi.

Majlis qaror qiladi:

1. Magistratura bo`limi 5A 140601 tarix mutaxassisligi magistri Шахрипов Шахриддинning **XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARI XALQARO MUNOSABATLARDA SHARQ MAMLAKATLARI (Abdurauf Fitratning siyosiy asarlari misolida)** mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi mavzusi tasdiqlansin.
2. Ilmiy rahbar etib tarix fanlari doktori, professor M.Oltinov tayinlansin.

Kafedra mudiri:

t.f.n. M.Yo`ldosheva

Kotib:

D. Murtazayev

MAGISTRLIK DISSERTATSIYA ISHINI BAHOLASH MEZONI

Magistratura bo`limi _____
(fakul`tet nomi)

TARIX.

(fanning nomi)

Шарипов Шахриддин Зиёдуллаевич

(talabaning ism-sharifi)

(himoya vakti)

Mavzuning dolzarbligi	Bajarilgan ishning mustaqillik darajasi	Amaliy ahamiyati	Adabiyotlardan foydalanish darajasi

Ishning rasmiylash-tirilishi	Dissertatsiya himoyasi	Umumiy ball	%

DAK raisi:

DAK a`zolari:

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“O`zbekiston tarixi ” kafedrası

Magistrant: Шарипов Шахриддин

Magistrlik dissertatsiyasi ishini bajarish yuzasidan

T O P S h I R I Q

Mavzu: _____

1–bob

yuzasidan: _____

2–bob

yuzasidan: _____

Xulosa

qismida: _____

Ilmiy rahbarlar

xulosasi: _____

Ilmiy

rahbar imzosi: _____

Kafedra

mudiri imzosi: _____

“ _____ ” _____ 2009 yil

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARI XALQARO MUNOSABATLARDA SHARQ MAMLAKATLARI

(Abdurauf Fitratning siyosiy asarlari misolida)

Kirish

I. Bob. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Sharq mamlakatlari jahon siyosatida.

- 1.1. Abdurauf Fitrat siyosatshunos olim sifatida.
- 1.2. Afg'oniston, Hindiston, Eron, Xitoy, Turkiya davlatlari Yevropa siyosatida.

II. Bob. Abdurauf Fitratning siyosiy merosida Turkiston ozodligi masalasi.

- 2.1. Abdurauf Fitrat XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonning siyosiy holati to'g'risida.
- 2.2. Turkiston ozodligi uchun nima qilmoq kerak?

Xulosa

Foydlanilgan adabiyotlar

KIRISH

Qaysi millat yashashni ravnaqu taraqqiyotni istasa tarixini bilishi lozim bo'ladi, zero, tarix bir ko'zguga o'xshaydi, har bir qavm o'zining ahvoli va ijtimoiy hayot qoidalarini unda ko'rib, yaxshini yomondan farq qiladigan bo'ladi.

Abdurauf Fitrat¹

Mavzuning dolzarbligi: Jamiyatimizning taraqqiyoti kelgusi istiqbolimizga shaxdam qadamlarni taminlash uchun xalqimizning ruhiyatini ko'tarish, o'z tariximizni o'rganish asosida jipsligimizni taminlashdir.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng uni tarixiy taraqqiyotining barcha jabhalarini tarixiy, har tomonlama ilmiy, amaliy tadqiq qilish boshlandi.

Ana shunday jabhalardan biri XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Sharq mamlakatlari va Turkistonning rivojlangan G'arb davlatlari tomonidan mustamlaka qilinish sabablari, shu davrdagi xalqaro vaziyatni tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega bo'lib qoldi. O'tmish sovet tarix fanida bu davr bir tomonlama o'rganildi, go'yoki Rus davlati va boshqa G'arb davlatlari Sharq davlatlariga va Turkistonga hech qanday tazyiq ko'rsatmadi, aksincha yordam berdi -degan tushuncha berildi. Shu bilan birga bu davrda millatning vatanparvar farzandlari, taniqli namoyondalari faoliyati qoralab ko'rsatildi, ular taqib ostiga olindi.

Mustaqillikdan keyin qator arxiv va boshqa tarixiy manbalar chuqur o'rganilib o'sha davrdagi murakkab xalqaro vaziyat o'lkamizga Rossiya va boshqa mamlakatlarning mustamlakachilik siyosati manbalar asosida o'rganilib qator ilmiy asoslangan tarixiy hujjatlar e'lon qilindi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Sharq mamlakatlarining, jumladan Turkistonning rivojlangan mustamlakachi mamlakatlar uchun muhim strategik hudud, arzon xomashyo bazasi o'zlarining global manfaatlari uchun raqobat

¹ Abdurauf Fitrat "Najot yo'li" T. "Sharq" 2004 yil 50-bet.

maydoni bo'lib qolganligi hammaga ayon. XIX asr so'nggi choragida Turkiston Rossiyaning eng ezilgan zulm ostiga olingan o'lkasi bo'lib qoldi.

Bu davrdagi Turkistonning og'ir ijtimoiy-siyosiy qaramligini chuqur his qilgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abduvoxid Burxonov singari jadidchilik namoyondalari mamlakatda mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatni chuqur tahlil qildilar va o'z asarlarida bu og'ir vaziyatni sabab oqibatlarini va ulardan qutulish yo'llarini asoslab berdilar.

Bu davrda yangi davr ruhiga mos milliy harakat jadidchilik harakati namoyondalarining faoliyati hayoti va ijodi olimlar tomonidan har tomonlama tadqiq etilgan. Behbudiy, Avloniy, Cho'lpon, Fitrat, Munavvarqorilarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari tadqiqi bizning nazarimizda yetarlicha amalga oshirilmagan, faqatgina o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab chuqur tadqiqotlar amalga oshirila boshlandi. Qator nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari, monografiya, ilmiy maqolalar e'lon qilina boshlandi. Ularning siyosiy, ijtimoiy, ma'rifatparvarlik qarashlari o'rganila boshlandi, ana shunday atoqli vatandoshlarimizdan biri

Abdurauf Fitratning faoliyati bo'yicha quyidagi tadqiqotlarni ko'ramiz:

A. Fitratning ma'naviy merosi mustaqillik yillariga kelib keng o'rganilmoqda. Bu borada tadqiqotchi olimlar B. Qosimov, N. Karimov, I. G'aniyev, H. Boltaboyev, Sh. Vohidov, D. Toshqulov, K. Hoshimov, D. Axatova kabilarning tadqiqotlari salmoqli o'rin tutadi.²

A. Fitrat ko'p qirrali faoliyat ko'rsatgan dunyoqarashi keng o'z davrining eng ilg'or buyuk arboblaridan biri uning adabiy, publisistika, siyosatshunoslik, poeziya, madaniyatshunoslik va boshqa sohalardagi boy merosi ko'plab olimlarning tadqiqot ob'ekti bo'lib qoladi. Jumladan, professor B. Qosimov Fitratning ijtimoiy-siyosiy va adabiy faoliyati masalasiga, professor N. Karimov Fitratning ijtimoiy faoliyatiga yuksak baho beradi.

² Qosimov B "Milliy uyg'onish" Toshkent ma'naviyat 2002 yil 349-373 betlar, Karimov. N "So'nggi so'z", A. Fitrat Tanlangan asarlar II jild Toshkent ma'naviyat 2000 yil 203-206 betlar; G'aniyev. I, Fitrat; E'tiqod va ijod Toshkent Kamalak, 1994 yil. Boltaboyev H. XX asr boshlari o'zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi; filologiya fanlari doktori dissertatsiya avtoreferati T. 1996 yil.

I.G'aniyev Fitratning filologik faoliyatini uning she'riyati, adabiy asarlari va "Abulfayzxon" dramasi misolida tadqiq etib, nomzodlik dissertatsiyasi va "Fitrat dramalari poemikasi" (1998) mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Olimlarning tadqiqotlarida Fitratning XX asr o'zbek adabiyotidagi o'ziga xos o'rni yoritib berilgan. H. Boltaboyev XX asr boshlari o'zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, mutafakkirni adabiyotshunos sifatida merosini tadqiq etdi. Shuningdek Fitratning ilmiy-adabiy merosini to'plab, to'rt jildda to'liq nashrni tadqiq ettirdi.

Fitrat merosi falsafa va huquqshunoslik fanlari nuqtai nazaridan ham tadqiq etilib, bu borada B. Ergashev va D. Toshqulovlarning tadqiqotlari katta ahamiyatga egadir.³ Tarix fanlari doktori Sh. Vohidov Fitrat merosidan "Oila" va "Rahbari najot" pedagogik asarlarni fors tilidan o'zbek tiliga chop ettirib, nashr ettirdi. (1998-2001) Lekin hozirgacha uni siyosatshunos olim jihatlarining tadqiqi qilinmagan. Biz A. Fitratning siyosiy qarashlarini uning asarlari orqali tasavvur qilishga urinib ko'ramiz.

Magistrlik dissertatsiyasida XIX asr oxiri XX asr boshlari xalqaro munosabatlarida Sharq mamlakatlari mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasini Fitratning ijtimoiy-siyosiy asarlari misolida tadqiq qilishga intildi va quyidagi muhim masalalarni yoritishga harakat qilindi.

- 1- XIX asr oxiri XX asr boshlarida Sharq mamlakatlarining jahon siyosatida tutgan o'rnini Fitratning siyosiy asarlaridagi ilgari surilgan fikrlar orqali yoritish.
- 2- Fitratning siyosiy merosini o'rganish, uning siyosiy qarashlarining shakllanishiga ta'sir qilgan jihatlarini aniqlash.

³ Ergashev. B. Из истории становления и развития общественно политических идей джадидизма, идеология молодого Бухарцев.

Tarix fanlari doktori dissertatsiya avtoreferati – Toshkent 1993 yil; Toshqulov. D. Основание направления политико-правовой мысли народов Узбекистана во второй половине XIX первой четверти XX в.в. Falsafa fanlari doktori dissertatsiya avtoreferati Toshkent – 1995 yil

3- Afg'oniston, Xitoy, Hindiston, Eron, Turkiya davlatlarining Yevropa siyosatidagi holatini Abdurauf Fitratning siyosiy asarlari bilan qiyosiy tahlil qilish.

4- XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridagi Turkistonning siyosiy holatini yoritish va bu haqda siyosatshunos A. Fitrat fikrlarini o'rganish, uning fikrlari bilan siyosiy voqealarning hamohangligini ko'rsatib berishga harakat qilish.

Ushbu muammolarni uning "Sharq siyosati", "Siyosiy hollar", "Angliz va Turkiston", "Turkistonda ruslar", "Johilona taassubg'a misol", "Muxtoriyat", "Sho'royi islomiyanning xatosi", "Musulmonlar g'ofil qolmanglar" singari siyosiy asarlari hamda "Hind ixtilolchilari", "Arslon" va boshqa dramalari asosida tadqiq etishga harakat qilindi.

Bu asarlar tarixiy-siyosiy nuqtai nazardan tahlil qilinib, o'sha davr to'g'risida tasavvur hosil qilindi.

Tadqiqotning maqsadi Abdurauf Fitratning XX asr boshlarida Sharq dunyosini og'ir ijtimoiy-siyosiy ahvoli va ularning hayotiga doir qarashlari to'g'risida tasavvur hosil qilish va Turkistonni ozodligi muammolari bo'yicha uning asosiy fikrini ko'rish, undan tarix, siyosatshunoslik fanlarida foydalanish yuzasidan ilmiy metodik xulosalar chiqarish.

Tadqiqot ob'yekti: A. Fitratning siyosiy merosini Mustaqil O'zbekistonimiz siyosiy rivojida tutgan o'rni.

Tadqiqotning predmeti A. Fitratning siyosiy qarashlari ifodalangan "Sharq siyosati", "Siyosiy hollar", "Angliz va Turkiston", "Turkistonda ruslar", "Johilona taassubga misol", "Muxtoriyat", "Sho'royi islomiyanning xatosi", "Musulmonlar g'ofil qolmanglar" singari siyosiy asarlari hamda "Hind ixtilolchilari", "Arslon" asarlari.

Tadqiqotning vazifalari:

- Muammo mavzusiga doir falsafiy, tarixiy, ilmiy manbalarini tahlil etish orqali muammoni asoslash.
- Jadid ma'rifatparvarlarining siyosiy g'oyalari tasniflash.

- Fitratning o'sha davrda rivojlangan G'arbning, Sharq mamlakatlariga nisbatan siyosatining mazmuni shakl va metodlari haqidagi fikrlarni tadqiq etish.
- Uning o'sha davrda G'arbning Sharqqa nisbatan siyosiy-iqtisidiy ta'siri haqidagi fikrlarini tarixiy manbalar asosida ilmiy asoslash.
- O'zbek siyosatshunosligida Abdurauf Fitratning siyosiy qarashlarini tutgan o'rnini yoritish va undan foydalanish yo'llarini ko'rish.

Tadqiqotning metodologik asosini dialektik metod, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov asarlari, "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasi va muammoga doir ilmiy tadqiqotlarda ilgari surilgan nazariy xulosalar, asosiy g'oyalar va fikrlar tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari:

- analitik obzor;
- tarixiy tahlil;
- qiyosiy tahlil;
- matematik statistika.

Tadqiqot natijalaridan ta'lim madaniy oqartuv ishlari muassasalari orqali foydalanish, uning xulosalaridan Oliy va o'rta maktablar, kollej va letselarda "O'zbekiston tarixi", "Siyosatshunoslik", "Vatan tuyg'usi" va "Ma'naviyat asoslari" fanlarini o'qitishda yoshlarning siyosiy ongi va siyosiy dunyoqarashlarini shakllantirishda foydalanish mumkin.

I. Bob. XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA SHARQ MAMLAKATLARI JAHON SIYOSATIDA.

1.1. Abdurauf Fitrat siyosatshunos olim sifatida

Turkiston xalqlari tarixini o'rganish jarayonida avlodlarga va boshqa xalqlar, millatlar uchun o'rnak olsa arziydigan voqea va hodisalarga va bu jarayonlarda faol qatnashgan va bu voqealarga ta'sir qilgan buyuk vatanparvar siymolar ma'lum va mashhurdirlar.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlari Turkiston xalqlari uchun og'ir ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy inqiroz davri sifatida tafsiflanadi. Siyosiy iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan asriy turg'unlikdagi qoloq O'rta Osiyo xonliklari ruslarning hujumini qaytara olmadilar. Harbiy jihatdan qoloq bo'lgan, bu uch davlat o'zaro urushlar girdobida qolgan edi. O'sha davr xalqaro munosabatlaridan chetda qolgan va xalqaro vaziyatni tushunib taxlil qilishga ojiz bo'lgan mahalliy hukmdorlar mamlakatni bosqinchilardan himoya qila olmadilar hamda mahalliy aholini og'ir ahvolini engillashtira olmadilar, zulmni kuchaytirdilar. Ularni dunyoqarashini o'zi, boshqaruv usullari zamondan orqada qolgan edi.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida mustamlakachilik va mahalliy hukmdorlar zulmi ostida qolgan xalqning ilg'or vakillari o'lkani og'ir siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy ahvolini chuqur tahlil qildilar, uning sabablarini o'rganib bu og'ir ahvolni obektiv-subektiv tomonlarinilarini ochib berdilar. Ular chuqur tahlil asosida bu og'ir ahvoldan qutulish yo'llarini izladilar. O'z davrining ziyoli olimlari vatanni qoloqligi uning fojiali oqibatlarini chuqur va har tomonlama his qilar edilar.

Ana shunday atoqli adib, publitsist, dramaturg, jamoat arbobi bo'lgan Abdurauf Fitrat o'zining dunyoqarashi va fikr mulohazalari bilan o'z davridan ilgarilab ketgan edi.

U 1886 yilda Buxoroda tavallud topgan va shu yerdagi madrasada ta'lim oldi. Uning otasi Abdurahimboy o'z zamonasining ziyoli boylaridan bo'lgan. Abduraufning onasi Mustafibibi o'qimishli ayol bolib, farzandlar tarbiyasi va

ta'limi bilan yolg'iz o'zi mashg'ul bo'lishiga to'g'ri kelgan. Chunki doimiy tijorat safarlarida yuradigan Abdurahimboyning farzandlar tarbiyasi bilan hamma vaqt ham mashg'ul bo'lishiga vaqti topilmasdi.

Abduraufning taxallusi Fitrat bo'lib bu so'zning lug'aviy ma'nosi "Yaratmoqdir", u garchi talabalik yillari Mijmar (cho'g'dan xushbuy narsalar solib tutatiladigan idish) taxallusini qo'llagan bo'lsa ham asosan umrining oxirigacha Fitrat nomiga sodiq qolgan

Davr tazyiqi kuchayib, uning zamondoshlari o'z asarlariga bir necha taxallus va laqablar bilan imzo chekishga majbur bo'lganlarida ham adib yolg'iz shu taxallusni qo'llagan hatto rasmiy idoralardagi xizmat chog'ida ham mana shu nom bilan yuritilgan.

Abdurauf Fitrat Sharq mamlakatlarida sodir bo'layotgan voqealar aholi boshiga tushayotgan barcha ofatlarning bosh sababi sifatida bilimsizlik, johillik va ochko'zlikni ko'rsatadi. U o'z asarlarida bir paytlar Sharq dunyosini ilm fan va ma'rifatda yuksak cho'qqilarga olib chiqqan islom dinini XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib Sharq mamlakatlarini turg'unlik va tushkunlikka tushushining asosiy sabablaridan biri sifatida e'tirof etadi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki Abdurauf Fitrat dunyoqarashi va bilimlarining shakllanishida uning ustozlari O'rta Osiyoda falsafiy, ijtimoiy siyosiy va huquqiy fikrlarining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan mutafakkir Axmad Maxdum Ibn Nosir Donishning xizmatlari beqiyos ahamiyat kasb etgan. Axmad Donish o'z zamonasining eng ilg'or kishilaridan biri sifatida fanning turli sohalarida samarali mehnat qilgan. Adabiyot, tarix, falsafa va tabiiy fanlarga bag'ishlangan bir necha o'nlab asarlar, A.Dohish qalamiga mansubdir. Mutafakkirning ilmiy merosida siyosat, davlat va huquq masalasi alohida o'rin tutadi. A. Donishning siyosiy huquqiy qarashlari "Faromushxona haqidagi hikoya" (1873) "O'zaro yordam va madaniylik tartibi xaqidagi risola" (1875) "Farzandlarga vasiyat kasb va hunarning foydalari haqida" (1877) Buxorolik mang'it amirlarining qisqacha tarixi (1895-97) nomli asarlarida bayon

qilingan.⁴ Axmad Donish O'rta Osiyoda XIX asrning ikkinchi yarmida shakllangan ma'rifatparvarlik siyosiy-huquqiy mafkurasining asoschilaridan edi. Axmad Donish O'rta Osiyo mutafakkirlari orasida birinchilardan bo'lib davlat va huquqqa inson ko'zi bilan qaragan mutafakkirdir. U yangi davr Ovrupa mutafakkirlariga o'xshab davlat qonun qoidalarini ilohiyot bilan emas, aql bilan bog'lashga harakat qilgan. Axmad Donishning ta'kidlashicha; "Aqlu davlat bir biridan ajralmas". Boshqa bir joyda mutafakkir shunday deb yozadi. "Qaysi saltanat-davlatning qoida va qonunlari aql tadbiriga moslashtirib qurilmagan bo'lsa, unday davlatdan hech vaqt yaxshilik ko'ra olmaydilar."⁵ Axmad Donish o'z hayotining so'nggi yillarida yozilgan "Buxorolik mang'it amirlarining tarixi" nomli asarida mang'itlar sulolasi tarixini taxlil qilib, Buxoro amirligining ijtimoiy, siyosiy tuzumining barcha illatlarini fosh qiladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Axmad Donishning ijtimoiy-siyosiy voqea va hodisalarga bag'ishlangan barcha asarlari, amirlikning ijtimoiy, siyosiy tuzumiga nisbatan tanqidiy ruh bilan sug'orilgan. "Buxorolik mang'it amirlarning qisqacha tarixi" asarining, mutafakkirning boshqa asarlaridan farqi shundaki, bu risolada alohida mansabdor shaxslar yoki ijtimoiy siyosiy tuzumning alohida sohalarigina emas, balki amirlikning butun boshqaruv tuzumi uning ichki va tashqi siyosati, rasmiy mafkurasi tanqid ostiga olinadi. Risolada ko'rsatilishicha jabr zulm, zo'ravonlik, qonunsizlik, insonlarning haq huquqlari izzat nafsini, erkinligini paymol qilish, talonchilik, bosqinchilik va axloqsizlik, to'rachilik, sansalarlik, adolatsizlik Buxoro amirlari va ularning amaldorlari faoliyatining mazmunini tashkil qilib kelgan. Bu illatlar yildan yilga, avloddan avlodga o'tib yanada chuqurlashdi, avjga chiqdi.

Axmad Donish Buxoro amirligining siyosiy tuzumini chuqur taxlil qilar ekan "bu tuzum aqlga ham, shariatga ham, inson tabiatiga ham to'g'ri kelmaydi shuning uchun o'zgartirish kerak -degan xulosaga keladi. Buning uchun amir xokimiyatiga barham berish kerak edi. O'zining bu haqdagi fikrini quydagicha

⁴J Toshqulov. O'zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy fikrlari tarixidan. Toshkent "O'zbekiston" 1996y. 101-bet

⁵ A.Donish Navodiral voqoe Toshkent "Fan" 1964yil 137 -bet.

bayon etadi: "Bizning hukumdorlar oliy hazratlari deb atalmish amir va janobi oliylari deb ataluvchi "vazir" adashgan hayvonlardan boshqa narsa emas, balki ulardan ham battardir. Sharoitga binoan ularni hokimyatdan chetlatish kerak, hech kim ularga bo'ysunmasligi lozim" deydi.

A. Donish asarlarida Rossiyaga, rus xalqi va uning madaniyatiga munosabat masalasiga aloxida o'rin ajratilgan. Bir tomondan Axmad Donish o'zining ko'pchilik ilg'or zamondoshlariga o'xshab, rus xalqi va uning madaniyati haqida gapiradi, o'z xalqini rus xalqi bilan do'stlashishga chaqiradi.

Ikkinchi tomondan Axmad Donish chor hukumatining bosqinchilik, mustamlakachilik siyosatini keskin tanqid qiladi. Marifatparvarning yozishicha, chor qo'shinlarining Samarqandni bosib olishi va uning Rossiyaga qo'shib olinishi natijasida mehnatkash xalqning ahvoli yanada yomonlashdi. Rossiyaning mamurlari turli baxonalar bilan Buxoroga tez-tez keladigan bo'lib qoldilar. Bu oldindan ko'zda tutilmagan xarajatlarga sabab bo'lardi. Buxoro hukumdorlari chor ma'murlarining kunglini olish maqsadida yanada ko'proq yangi-yangi soliqlarni joriy qildilar. Buni ko'rgan mustamlakachilar yanada faollashdilar, har-xil narsalarni baxona qilib amir va uning amaldorlarini ayblashga urindilar. Buxoro hukumdorlari esa bechora xalqqa nisbatan o'z zulmini yanada kuchaytirardilar. oqibat natijada mehnatkashlar chidab bo'lmas darajada qashshoqlashdilar, mamlakat vayronaga aylandi. Mavjud tuzumni o'z qarashlari va ustozining asarlari yordamida atroflicha tahlil qilgan Abdurauf Fitrat Sharq mamlakatlarida sodir bo'layotgan ijtimoiy, siyosiy voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rib xulosalar chiqarish maqsadida bir qancha sayohatlarni amalga oshiradi.

Abdurauf Fitrat mashxur "Mir Arab" madrasasida tahsil oldi. Zamondoshlarning ma'lumot berishlaricha u Buxoroda 18 yoshga qadar o'qigan so'ng otasi bilan hajga bordi. Turkiya, Hindiston, Eron, Arabistonda bo'lgan. "Tazkiratush shuaro" muallifi Ne'matulla Muhtaramning uni ham otasi kabi

“sarrof” deb atashi “Xoji Mulla Abdurauf ” deb tanishtirishi fikrimizni tasdiqlaydi.⁶

Shuningdek Fitrat markaziy Rossiyaning Moskva, Peterburg kabi shaharlariga ham sayohat qilgani ma'lum. Bu sayohatlar mutaxassislarining aniqlashlaricha, 1904-1907 yillarga to'g'ri keladi. 1937 yildagi sud tergov ma'lumotlariga qaraganda Fitrat Istanbulda 1909-1913 yillari «Dorulmuallimin»da o'qigan.⁷ «Yosh turklar» inqilobi munosabati bilan qizg'in siyosiy kurashga g'arq bo'lgan Turkiya muhiti Fitratga katta ta'sir ko'rsatadi.

U 1913 yilda Buxoroga qaytdi va bu yerda siyosiy jihatdan katta o'zgarishlar bo'lganligining guvohi bo'ldi. Rus davlatining toboro Buxoro amirligini siquvga olayotgan bir sharoitda ham Buxoro amirining davlat siyosatidagi loqaydligi va to'g'ri yo'lni tanlay olmayotganligini ko'rib tashvishga tushadi.

Buxoroda bu paytda yosh Buxoroliklar partiyasi tuzilgan bo'lib Fitrat bu partiyada faol siyosiy faoliyat bilan shug'ullana boshladi.

«Yosh Buxoroliklar» partiyasi taraqqiyparvar yoshlarning katta bir guruhi dehqonlar ahvolini yaxshilash, amaldorlarning poraxo'rligiga chek qo'yish soliqlarni kamaytirish singari iqtisodiy-siyosiy talablar bilan chiqa boshladilar. Talablarning xilma xilligi va jadidlarga rahnamolik qiluvchi yagona shaxsning yo'qligi bu harakatning bo'linib ketishiga sabab bo'ldi. Jadidlar guruhi faqat ma'rifiy ish, xukmdor sinf vakillarini insofga chaqirish bilan cheklanishga da'vat etsa, so'l guruh iqtisodiy va siyosiy talablar bilan maydonga chiqmoqda edi.

O'ng guruhga Abduvoxid Burxonov so'l guruhga Abdurauf Fitrat boshchilik qila boshladi. Ruhoniylar bunday bo'linishdan foydalanib, jadidlarga hujumni kuchaytirdilar, masjidlarning minbarlaridan turib ularni kofir deb atay boshladilar.

⁶ Qarang Qosimov B., Yusupov SH, Dolimov U., Rizaev SH., Axmedov S. milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti T. «Ma'naviyat» 2004 yil 356 bet.

⁷ O'sha asar 358 bet.

Rossiyadagi 1917 yil fevral burjua voqealarini Buxoro mana shunday siyosiy muhitda kutib oldi. Buxoro jadidlari ham qon to'kmay shunday inqilob o'tkazish uchun yagona markaziy qo'mita atrofida birlashdilar. Markazqo'm raisligiga Abduvoxid Burxonov, sarkotibliklikka Abdurauf Fitrat saylandilar.

Rossiyadagi fevral inqilobini Fitrat siyosatshunos vatanparvar sifatida ko'tarinki ruhda kutib oldi. U eng avvalo davrining eng zakovatli siyosatchi olimi sifatida rus inqilobidan Turkistonda foydalanish mumkinligini atroflicha o'rgandi. Buxoro jadidlari Abdurauf Fitrat boshchiligida juda keng miqyosda omma ichida juda katta ishlarga qo'l urdilar.

Mavjud og'ir ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvolni o'zgartirish uchun tub islohotlar o'tkazish tomon harakat boshlandi. Amirlik tuzumi hukmron tabaqa mavjud holatni o'zgartirishni mutlaqo istamas edi. Katta yer-mulk, boylikga ega bo'lgan feodallar, oily tabaqa ruhoniylari rus inqilobiga salbiy qaradilar. Ular mavjud fojeali ahvolni tushunmas, o'z imtiyoz va boyliklaridan voz kechishni istamas edilar. Ular yosh Buxoroliklarning tub islohotchilik harakatlariga tish-tirnoqlari bilan qarshi chiqdilar va unga qarshi keskin chora ko'rishni amir va uni hukumatidan talab qildilar. Xalq ommasi ichida jadidlarni targ'ibot-tashviqoti boshlandi, lekin aqidaparast ruhoniylar ham xalqning ichida jadidlarni obrue'tiborini tushirishga o'tib qarshi hujumga o'tdilar. Amir hukumati ham taqibni keng avj oldirdi. Xalq ommasining juda katta qismi g'irt savodsiz, og'ir, qashshoq hayot kechirar, mavjud og'ir shart-sharoitdan qutilish, boshqa biror-bir turmush tarziga ega bo'lishni xayol qilmas edilar. Tashqi dunyodan to'la uzulib qolgan siyosiy-ijtimoiy huquqsizlikda bo'lgan xalq ommasi tushkun va sokin holatda edi.

Jadidlarning mamlakat siyosiy xayotida o'zgarishlar qilishga intilishlari qat'iy edi. Lekin asrlar davomida qullik psixologiyasi singdirilgan har qanday erkinligi bo'g'ilgan xalq og'ir sukutda bo'lib uning qandaydir ozgina qismi uyg'ongan bo'lib, qolgan qismi hali uyquda edi. Shunday og'ir vaziyatda qora kuchlarni qattiq qarshiligiga qaramasdan jadidlar xalqni uyg'otishga kirishdilar. Buxoroning amiri va ruhoniylariga bu xatti xarakatlar yoqmasdi. Natijada jadidlar tomonidan

tashkillashtirilgan tinch siyosiy namoyish ta'qib ostiga olindi. Va jadidlarning boshqa vakillari qatorida Abdurauf Fitrat ham Buxoroni tark etishga majbur bo'ldi.

Fitrat hayotida yangi davr boshlandi. Siyosatshunos olim Sovetlarning dastlabki yillardagi siyosatini har tomonlama o'rgandi. Turkistonda o'tkazilayotgan barcha tadbirlarni tahlil qilib uning ayrim ijobiy tomonlarini maqulladi. 1918 yilning bahoridan boshlab Toshkentda yashay boshladi Bu erda u 1918-1920 yillar davomida jurnalisitika, siyosiy va ilmiy faoliyat bilan shugullandi. «Temur sag'anasi», «Abu Muslim», «O'g'uzxon» «Qon» kabi yirik dramatik asarlarini yaratdi.

Buxoro xalq respublikasi tashkil etilib uning idora ishlariga “Yosh buxoroliklar” partiyasining bir qator sobiq a'zolari jalb qilindi. Xuddi shunday so'rov bilan Fitrat 1921 yilning 9 martidan Buxoroga chaqirib olinadi. Fitrat bir qator nozirlik ishlariga, jumladan, xalq maorifini tizimli sur'atda rivojlantirish, madaniyat va jumhuriyatning boshqa davlatlar bilan xorijiy aloqalarini yo'lga qo'yish ishlariga jalb qilinadi.

U rasman tashqi ishlar noziri, maorif noziri, Xalq xo'jaligi kengashining raisi, Markaziy Ijroiya qo'mitasining o'rinbosari kabi ma'sul vazifalarni bajardi. Buxoro tezlik bilan rivojlanish yo'liga o'tib olib markazni don va oziq ovqat bilan ta'minlash masalasini ikkinchi o'ringa surib qo'ygani uchun, 1923 yilning 12 iyunida Moskvada RKP (b) MQ ning «Buxoro masalasiga doir» -degan qarori qabul qilindi va ushbu qarorga ko'ra qo'mita kotibi Rudzutak Buxoroga kelib davlat ishlariga o'rinish olgan sobiq jadidlarni tozalashga kirishdi. Xuddi shu davrda “o'z mansabini suiste'mol qilgani va moliyaviy jihatdan kamchiliklarga yo'l qo'ygani uchun” Fitrat o'zi boshqarayotgan ma'sul vazifalardan chetlatildi.

Tez orada u sobiq SSSR hukumati xuzuridagi Buxoro jumxhuriyatining Muxtor vakilligi tomonidan Moskvaga chaqirib olindi va u yerda chiqayotgan «Uchqun» hamda «Buxarskaya jizn» kabi vaqtli nashrlar ishlariga jalb qilindi, Lazarevlar jonli Sharq tillari institutiga ma'ruzalar o'qish uchun taklif qilindi va professor unvoniga sazovor bo'ldi.

Abdurauf Fitrat Buxoro jumhuriyatining ma'sul vazifalaridan olib tashlanishiga uning xalq orasida toboro obro'si ortib borayotganligi va uning asarlari Buxoro xalqini ongiga kuchli ta'sir etayotganligi edi.

Rus hukumati ma'murlariga bu holat yoqmadi va ayniqsa Fitratning Turkiston yoshlaridan tashkil topgan bir gurux yoshlarni o'z bilim va malakalarini oshirish uchun Turkiya, Germaniya singari davlatlarga o'qishga yuborishlarida faol qatnashganligi, ularni sergaklantirib qo'ydi. Ahvol shu zaylda davom etsa Buxoro jumhuriyati mustaqil davlatga aylanishini tushunib yetgan Rus hukumati a'yonlari Fitratga nisbatan turli ig'vo buhtonlar uyushtira boshladi.

Bu yo'lda ayniqsa xalqimiz ichidan chiqqan laganbardorlar va yurt xoinlari o'z vazifalarini oshig'i bilan bajardi. Natijada «Fitratga aksilinqilobiy millatchilik ruhidagi asarlar, dramalar yozish, Ozarbayjondagi Cho'ponzoda boshliq aksil inqilobiy millatchilik tashkiloti bilan Sovet Sharqi Respublikalarini, Sovet ittifoqi tarkibidan ajratib, Turon davlatini barpo qilish maqsadida birlashgan millatlar tashkilotlaridan biriga rahbarlik qilish»⁸ singari bir qancha ayblar qo'yilib xibsga olindi.

Endi ular Fitratni tirik holatda ushlab turish og'ir oqibatlarga olib kelishini tushunib yetgan edi. Shuning uchun ham o'zbek xalqining buyuk farzandi Abdurauf Fitrat 1938 yilning 4 oktyabr kuni sobiq SSSR oliy sudining sayyor xarbiy xayati chiqargan qarorga asosan otuvga hukm qilindi.

«Hay'at majlisi soat 12²⁵ da boshlangan va atigi o'n besh daqiqa davom etib 12⁴⁰ da tugagan. Shu kuniyoq bu ma'shum xukm ijro etilib Fitrat bo'zsuv yoqasidagi jarlikda otib tashlangan.»⁹

Abdurauf Fitrat Sharq va G'arb mamlakatlari ijtimoiy siyosiy hayotini siyosiy jarayonlarni xalqaro ahamiyatga molik voqealarni chuqur urganadi. Ayniqsa yaqin qo'shni turk, afgon, hind, arab xalqlari hayotini jiddiy kuzatadi, ularning taqdiriga jahon xalqlari taqdiri bilan bog'lik tarzda qaraydi. Sharq

⁸ Qarang Naimov N. Fitrat fojeasi Toshkent «Fan» nashriyoti 2005 y 165 bet.

⁹ O'sha asar 164 bet.

mamlakatlari nisbatan mustamlakachilik siyosati olib borayotgan Garb dunyosini siyosatini chuqur tahlil qiladi. U siyosatshunos olim sifatida o'zining siyosiy qarashlarini dastlab 1918-1919 yillarda yaratgan «Sharqda inglizlar», «Sharq siyosati», «Afg'oniston ishlari», «Turkistonda Ruslar», «Siyosiy hollar» kabi bir qator siyosiy asarlarida va «Chin sevis», Hind ixtilolchilari», «Arslon», «Vose' qo'zgoloni» kabi dramalarida aniq ravshan ochib beradi. A. Fitrat o'zining ko'pchilik asarlarini garchi badiiy ruh bilan yozgan bo'lsada ularning tarixiylik, jahon siyosatiga aloqadorlik kabi tomonlari o'sha davrni o'rganishga yordam beradi.

Fitrat asarlarini tahlil qilish natijasida uning XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida G'arb dunyosini Sharq xalqlariga nisbatan mustamlakachilik siyosatini atroflicha ilmiy va nazariy jihatdan chuqur tahlil va aniq xulosalar qilganligini ko'ramiz.

Fitratning «Sharq siyosati» nomli risolasi birinchi jahon urushidan keyin davom etayotgan va urushda qatnashgan Ovrupa mamlakatlarining Sharqni o'zaro bo'lib olish siyosatiga qarshi milliy ruhda yozilganligi bilan alohida ahamiyatlidir. Uning shu nomdagi risolasi dastlab «Ishtirokiyun» gazetasida 1919 yil 23, 25, 26 oktyabr sonlarida so'ngra esa Toshkentda alohida risola xolida chop etilgan. 1991 yilda Buxorodagi «Navqiron Buxoro» ilmiy markazi tomonidan qayta nashr etilgan.

«Siyosiy hollar» nomli asarida XX asr boshlarida Rossiyaning jahon davlatlari bilan bo'lgan munosabatlarini ochib berishga harakat qilib ushbu fikrni keltirib o'tadi. «Musibat ustuna musibat ! Rusiyaning hozirgi holatini ochiqroq tasvir etmak uchun mundan yarasharoq so'z yo'qdir. O'zgarishdan so'ng Rusiyaning har tarafidan ochliqlar, yong'inlar, talonlar, o'limlar, o'ldirmalar bo'lib turgan chog'da birda chiqib qolgan g'olibiy mag'lublig'i bilan buning ustiga tortilmas bir yuk bo'lib cho'kg'an Rig'o ketishini ko'zga olsak va bular orasidan

bosib kelgan boltiq mag'lubligini o'ylasak, Rusiyani musibat ustuna musibat bosayotibdir».¹⁰

Fitrat bu fikrini keltirish bilan Turkiston xalqini qulay ijtimoiy siyosiy voqealardan foydalangan holda o'z mustaqilliklarini elon qilishlarini xalqni ozodlik sari o'tlanishlariga da'vat etadi. U ushbu asarida yana shunday fikrni keltiradi. «Biz Turkistonliklar uchun har holda Kirenskiychilar bilan bolsheviklar orasidagi kurashning bitib ketmadigini ko'zda tutib, o'z yo'llarimizni shunga ko'ra tayin etmak kerakdir».¹¹

A. Fitrat ushbu fikrlari bilan o'sha davr tarixiy voqealariga haqqoniy baho beradi va vujudga kelgan qulay vaziyatdan ustalik bilan foydalanishni targ'ib qiladi. Ming afsuski uning bunday chaqiriqlari va sa'yi harakatlari vatan xoinlari ba'zi bir yurtfurushlar tomonidan bug'ib tashlanadi.

A. Fitrat o'z zamonasining bilimdoni va o'tkir siyosatdoni bo'lganligini «Angliz va Turkiston» maqolasini o'qib va taxlil qilib ham guvohi bo'lishimiz mumkin. Unda shunday fikrlarga ko'zimiz tushadi. «Inglizlar bilan Turkiston orasinda Afg'on va Chin hukumatlari bordur. Ajabo Britaniya tulkilari Turkistonimizga burunlarini suqmoq uchun Chin hukumati bilanmi anglashadilar. Afg'on xukumati bilanmi? Og'iz xabarlarig'a qarag'anda , har ikkisi bilan ham anglashg'an; hatto Afg'on xukumati bilan ittifoqi kuchliroqg'a o'xshaydi lekin biz shul Angliz va Afg'on ittifoqini qabul qilmaymiz.»¹²

Darhaqiqat A. Fitratning fikr va mulohazalarini to'g'ri ekanligini bo'lib o'tgan siyosiy voqealarning o'zi isbotini ko'rsatdi. Oradan ko'p o'tmay inglizlar o'z josuslarini Afgoniston orqali Turkistonga muttasil ravishda yuborib turdi qulay vaziyatni kutdi. Lekin ularning barcha intilishlari Rus bosqinchilarining xiyla va nayranglari siyosiy o'yinlari tufayli amalga oshmay qoldi.

¹⁰ A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild T. Ma'naviyat 2003 yil Siyosiy hollar 196-197 betlar.

¹¹ O'sha asar 197 bet.

¹² A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild T. Ma'naviyat 2003 yil «Angliz va Turkiston» 204 bet.

A. Fitrat o'zining «Sharq siyosati» nomli asarida «Anglizlar Hindistonni yutdilar, Misrni bosdilar. Adanga kelib Arabistonga qo'l uzatdilar. Rus imperialistlari Qafqasiyoni taladilar, Turkistonga kirib, Xitoy, Afg'onga, Eronga ko'z tikdilar. Fransuzlar Tunis va Jazoirni g'asb etib Falastinga yukundilar»¹³ -- degan haqiqatni keltirib o'tadi. Ushbu fikrlari bilan u Sharq mamlakatlari imperialist davlatlar tomonidan birin ketin bosib olinayotganligi, bu jarayon shu zaylda davom etaversa Sharq davlatlari asta sekinlik bilan G'arbga butunlay tobe bo'lib qolishi mumkinligini iztirob va alam bilan e'tirof etadi.

Ushbu asarida yana shunday so'zlarni ham o'qishimiz mumkin: «Bundan olti yil burun Tunis va Jazoyirg'a sayoxat uchun borg'ani misrli bir yozg'uchi sayoxatnomasinda shul so'zlarni yozadir. «Faransiya buzuqlig'i Jazoirning kentlarinda unga ta'sir qilmag'an bo'lsa ham shahar kishilariga xo'b yomon ta'sir etgan. Milliy axloqlarindan asar yo'q, milliy tillari yo'qola yozg'an, jazoir xalqining bir bo'lagi o'z tillarini sira bilmaylar. Faransuzcha gapirurlar, bir bo'lagi bilsa ham tugal bilmaylar. Gapursalar so'zlarining yarmi arabcha yarmi franso'zcha bo'lib chiqadir.»¹⁴ Fitrat ushbu so'zlari bilan jazoir xalqining boshiga tushgan kulfat yaqin kelajakda Turkiston xalqlari boshiga ham tushishi aniq ekanligini, tezroq bu holning oldi olinmasa yomon oqibatlariga olib kelishi mumkinligini tushunib yetadi. Va buni xalqqa tushuntirishga harakat qiladi. Uning bu fikrlari qanchalik to'g'ri ekanligini mustamlaka zulmi ostida o'tgan tariximiz isbotlab turibdi.

Yana bir «Johilona taassubg'a misol» nomli asarida «Buxoro shahrining o'ramlarina ushbu mazmunda bir e'lon yopishtirilg'on edi: Yangi chiqqan jadidlar bolalarimizning e'tiqodlarini buzalar munda xunarlarinda hech kim bolasini o'qutmasin, o'qutsa shu kishini o'ldirajakmiz, jadidlar jivlashib o'lturmasinlar, agarda jivlashib o'ltursalar biz onlarning boshlarini kesamiz, jadidlar namoz birla

¹³ A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild T. Ma'naviyat 2003 yil «Sharq siyosati» 216-bet

¹⁴ O'sha asar 220-bet.

ro'zani o'tamaylar, munlar kofirlar qonlari halol»¹⁵ --degan fikrni keltiradi. Bu so'zlar diniy taassubga erk bergan mullalar tomonidan Buxoroning odamlar gavjum bo'ladigan joylariga yozib ketigan edi. Abdurauf Fitrat ushbu asarida chala mullalarning kirdikorlarini fosh etadi.

Fitrat o'sha davrdagi murakkab vaziyatni ilmiy va oqilona tushuntirib berdi. Davlatlar va hududlar o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar to'g'risida asosli fikrlar aytdi. Jumladan u Evropadagi etakchi davlatlar o'rtasidagi mustamlaka o'lkalar masalasidagi qarama karshiliklarga to'xtaladi. «Ma'lumdirki bu kun German va Turk davlatlarining birinchi dushmanlari inglizdir. German va Turk davlatlari oldida Turkistonning inglizlarga kechmakindan ruslarga qolmog'i yaxshiroqdir. Bir vaqtlar o'zini turk davlatining bir kashishi atag'an Afgon xukumati Turk siyosatiga shuncha molik bo'lgan bir masalani qabul kilarmi?

Angliz bilan ittifoq etmak German va Turkga qarshi chiqmoqdir. Afgon hukumati bu yo'lga kirarmi.? Angliz xiylasining ta'siri buyukdir, ehtimol kim Afg'on hukumati ham oldang'andur, lekin bizning umidimiz boshqadir».¹⁶ Bu yerda Fitrat Sharq mamlakatlari o'rtasidagi munosabat va inglizlarni Afgoniston bilan aloqasi darajasini ko'rsatib beradi.

Germaniya, Turkiya va Angliya davlatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga e'tiborni jalb qiladi va Angliyaning bu mamlakatlar bilan xalqaro maydonda asosiy raqib ekanligini e'tirof etadi. Fitratning davlatlararo aloqalardagi qarama-qarshiliklarni ko'rsata olgani ahamiyatga molikdir. Germaniya, Turkiya va Angliya bilan Turkiston olib borishi kerak bo'lgan siyosatni nozik qirralariga e'tiborni jalb etadi. Turkistonning yuqorida tilga olingan davlatlar ichida qanday siyosat olib borishi kerakligini ko'rsatib berdi. Turkistonning Angliyaga qaraganda Rossiya

¹⁵A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild T. Ma'naviyat 2003 yil «Johilona taassubg'a misol» 210- bet.

¹⁶A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild T. Ma'naviyat 2003 yil «Angliz va Turkiston» 204- bet.

bilan diplomatik va boshqa yo'nalishlarda yaqin aloqada bo'lishi maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi.

A. Fitrat uzoq vaqt siyosiy jarayonlarni har bir mamlakat miqyosida va uning atrofida tizimli ravishda o'rganib chiqdi. Ayniqsa u Turkiston atrofidagi xalqaro vaziyatga alohida e'tiborni jalb qildi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak A. Fitratning XX asr boshlari xalqaro vaziyatni ochiq ochib beradigan siyosiy asarlarini o'rganish jarayonida ularni zo'r siyosiy mahorat bilan yozilganligini guvohi bo'lamiz. U o'zining bu asarlarida XX asrning boshlarida G'arb dunyosining iqtisodiy siyosiy jihatdan qoloq Sharq mamlakatlariga kuchli tasirini ko'rsata oldi. Siyosatshunos olim sifatida G'arb mustamlakachilarining halokatli siyosati oqibatlarini ko'rsatdi.

Bizning fikrimizcha A. Fitrat bu asarlari bilan Turkiston xalqlarini dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, hamda siyosiy voqealar holatlar bilan tanishtirishga harakat qilgan. Ayniqsa uning o'ta qaltis sharoitlarda ham o'z fikr mulohazalarini dadil himoya qilganligi el-yurt, ona Vatan uchun sidqidildan qilgan harakatlari uning qanchalik buyuk siymo ekanligini isbotlab turadi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshida ham jadidlarning qarashlarida islohotchilik yo'nalishidagi fikrlar borgan sari ko'payib bordi. Turkiyada tahsil olib qaytgan Fitrat dunyoqarashi va siyosiy qarashlari o'zgardi. Siyosiy asarlari bilan bir qatorda «Munozara», «Hind sayyohi bayonoti», «Oila» singari asarlarida ham Abdurauf Fitrat jadidchilik g'oyalarini targ'ib qila boshlaydi. Turkiyada bo'lib Sharq va G'arbning madaniyati va turmush tarzini ko'rib, Buxoroga qaytgach, uning ko'ziga amirlikdagi sharoit yanada qoloqroq ko'rindi. Podsho Rossiyasining bu vaziyatni o'zgartirishga intilmaslik siyosati mavjud muhitni yanada og'irlashtirardi.

Bizga ma'lumki Abdurauf Fitrat o'zining ilk asarlaridanoq o'z siyosiy asarlarini tanqidiy uslubdan foydalangan holda yozib muvaffaqiyatga erishadi. XX asr boshlarida ayniqsa Buxoro amirligi sharoitida mavjud tizimni qoida tartiblarini, ba'zi xalq urf odatlarini tanqid etish oson bo'lmagan.

Fitratning «Raxbari najot» (najot yo'li) nomli asarini 2001 yilda birinchi marta o'zbek tilida Zoir Choriev ma'sul muharrirligi ostida chop ettiradi. U ushbu asarga yozgan so'zboshisida Abdurauf Fitrat shaxsiga va uning dunyoqarashiga quyidagicha fikr bildiradi. «XX asrning bosharida Fitrat uchun ibratli davlatlar Evropa davlatlari va xalqlari bo'lgan. Muqoyasa va solishtirish natijasida Fitrat qudratli davlatlarning muvaffaqiyatlarini Turkistonliklarda ham ko'rmoqchi bo'ladi. Fitrat domla Turkistonning tarixini asrlar davomida mushohada etar ekan, uning madaniyati o'rta asrlarda ham rivojlanganini eslaydi va u afsus bilan XX asr boshlariga kelib Buxoro jamiyatining boshqa davlatga nisbatan zaiflashganini takrorlaydi.»¹⁷

Umuman olganda Abdurauf Fitratning siyosiy faoliyatini o'rganish jarayonida bir biriga zid bo'lgan ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin.

A. Fitrat, F. Xo'jaev bilan birgalikda amirlik tuzumiga qarshi kurashadi. U o'z tarjimai xolida shunday yozadi: «Qo'qon» muxtoriyati e'lon qilindi.. Men Samarqand tomonidan vakil qilib saylanganim holda Qo'qonga bormadim, Turkiston muxtoriyatining hech bir ishida ishtirok etmadim. Butun Turkiston millatchilarining g'azabini keltirib, mashhur Kolesov voqeasiga aralashdim. Buxoro amiriga berilgan ul'timatum mening qalamim bilan yozildi. Fitratning Buxoro amiriga ul'timatum yozishiga ikkita asosiy sabab bor edi. Birinchidan «Yosh Buxoroliklarning milliy zulm va diniy bid'at avj olgan amirlikda siyosiy va diniy islohot o'tkazish istagi kuchli edi. Ikkinchidan, Fitrat va «Yosh buxoroliklar» partiyasi a'zolari bu davrda Frunze boshchilik qilgan qizil qo'shinning xolisona yordamiga ishonganlar. Lekin ular aldanganliklarini juda kech angladilar. Buxoro amiri ul'timatumni rad etadi. Frunze boshchilik qilayotgan qizil qo'shinlar yordam bermaydi. Amirning kuchli armiyasi «Yosh buxoroliklar»ni mag'lubiyatga uchratadi va ularni Buxorodan quvib chiqaradi.

Buxorodan chiqib ketishga majbur bo'lgan Fitrat Toshkentda «Chig'atoy gurungi» nomli ilmiy adabiy madaniy tashkilot tuzadi .

¹⁷ «Rahbari najot» Zoir Choriev muharrirligi ostida T. «Ma'naviyat» 2001 yil 4-bet.

Buxoro xalq respublikasi tuzilgandan keyin uning tashkilotchilari bo'lgan Fayzulla Xo'jaev , Usmon Xo'ja va Abduqodir Muhiddinov kabilar tomonidan Abdurauf Fitrat Buxoroga chaqirib olindi.

Abdurauf Fitrat o'z hayotini millat ravnaqi uning ozodligi insonlarning kamoloti uchun fido qilgan buyuk olim hisoblanadi. Uning merosini o'rganish yetarlicha xulosalar chiqarish biz avlodlar uchun ham qarz, ham farz sanaladi.

1.2 Afg'oniston, Hindiston, Eron, Xitoy, Turkiya davlatlari Yevropa siyosatida.

G'arb dunyosi XIV-XV asrlarda iqtisodiy taraqqiyotda qator yutuqlarni qo'lga kiritdi. Tabiiy resurslarga, arzon xom ashyolarga, ishchi kuchiga ehtiyojlar Yevropani o'ziga nisbatan iqtisodiy-siyosiy qoloq bo'lgan Afrika va Osiyoning feodal-ibtidoiy jamoa tartiblari hukm surgan mamlakatlariga nisbatan mustamlakachilik siyosatini yurita boshladi. XV asrning ikkinchi yarimida boshlangan mustamlakachilik siyosati XX asrgacha davom etdi. Ayniqsa XVIII asrdan bu tazyiq kuchayib ketdi. XIX asrning birinchi yarimidan O'rta Osiyoga nisbatan Rossiya va Angliya davlatlarining raqobat kurashi kuchaydi. XV asrdan Osiyodagi feodal nizolardan foydalangan rus podsholari birin ketin Volga bo'yi, Sibir, Oltoy, Uzoq Sharqdagi turkiy xalqlarning zaif, o'zaro urushlar girdobida qolgan xonliklar hududlarini to'la bosib oldilar.

Biz XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridagi Eron, Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Iroq hamda O'rta Osiyo mamlakatlari singari Sharq davlatlarining yevropaning mustamlakachi davlatlari tomonidan asoratga solinishini Abdurauf Fitratning siyosiy asarlari misolida yoritishga va bu davlatlar boshidan o'tkazgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni ochiq tasavvur qilishga harakat qilamiz.

Abdurauf Fitrat Yevropani Sharq siyosatini ilmiy va amaliy tahlil qildi. Yevropa ilg'or taraqqiyoti Osiyo mamlakatlari qoloqlik sabablarini aniq asosli ochhib berdi. Sharqning insoniyat sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalarini ham ko'rsatdi.

Abdurauf Fitratning ushbu "Ovrupoda bir mahalla oqsoqollig'i yo'q ekan, Sharqning "Ko'zquchinos", "Barahma", "Iso", "Zardusht" va Muhammadlari butun odam o'g'illarini bir nuqtada to'plab to'g'ri va bilgili yo'lg'a kirguzmak uchun tirishar edilar. Chinlilar yozish uchun qog'oz yasag'anda ovrupolilar o'ng va

so'l qo'llarini bir-biridan ayira olmas edilar"¹⁸ -degan fikri ham ushbu fikrimizni tasdiqlaydi.

Darhaqiqat bu kun insoniyat tomonidan keng miqyosda foydalanilayotgan va jamiyat hayoti uchun suv va havodek zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarning ko'pchiligi Sharqda ajdodlarimiz tomonidan yaratildi va takomillashtirildi.

Sharq xalqlari butun dunyoning rivoji uchun harakat qilganlar. Sharq madaniyat o'chog'i insof belgisi va axloq maktabi bilim madrasasi hisoblangan.

Sharq davlatlari va xalqlari qadimiy ajdodlarimiz merosini oxirigacha davom ettirib ilg'or madaniyatni rivojlantirganlarida bugungi Sharq bundan yuz marta madaniyroq va taraqqiy etgan bo'lar edi.

“Sharq o'zining tarixi, siyosati, hunari, insofi, adolati, axloqi va hikmatu e'tiborlari bilan uncha yuksalishi qadar taraqqiy etilishi edikim tasavvuri ham bizning miyalarimizga sig'maydur"¹⁹ -degan fikrlari bilan xassos olim Abdurauf Fitrat haq gapni e'tirof etgan edi.

XIX asr oxiri va XX boshlariga kelib Sharqning Eron, Afg'oniston, Turkiya, Hindiston, Xitoy hamda O'rta Osiyo davlatlari kabi bir qancha davlatlari mustamlakachi Yevropa davlatlarining iqtisodiy-siyosiy manfaatlari amalgam oshiriladigan, talonchilik maydoni, arzon ishchi kuchi, xom ashyo manbasiga aylandi. Sharq davlatlarining qullik iskanjasiga bunday tez tushishi sabab va oqibatlarini inkor qilib bo'lmaydigan tarixiy-iqtisodiy siyosiy dalillarni asoslab Abdurauf Fitrat quyidagicha tavsiflaydi: “Sharqning butun ishlari ongsiz beklar, tushunchasiz xonlar, miyasiz mullalar, bilimsiz eshonlarning qo'liga o'tdi. Bular Sharqning butun tuzuk va intizomini buzib yubordilar. Xonlar o'z qorinlarini to'ydirmoq uchun xalqni bir-biri bilan urishtirdilar, mamlakatning jonli va muhim o'rinlarini sotdilar, mullalar o'z istavlarig'a din otini toqib bozorg'a chiqardilar,

¹⁸ Qarang.A.Fitrat. Tanlangan asarlar Toshkent “Ma'naviyat” 2003 yil Sharq siyosati 213-bet

¹⁹ O'sha asar 214-215- betlar.

din, tangri, payg'ambar, uchmoh va tamug' orqali Sharq xalqini talay boshladilar".²⁰

XIX asr oxiri XX asr boshlarida rivojlangan G'arb davlatlarining Sharqqa niabatan qo'llagan mustamlakachilik siyosatining negizini muhim strategik ahamiyatga ega, xududlarga egalik qilish xom ashyo va boshqa boyliklardan tinimsiz ravishda ko'proq foydalanish singari maqsadlar tashkil etgan.

Olim alam bilan Sharq dunyosining tanazzul, tushkunlik holatini ob'ektiv sabablarini holisona ko'rsatdi. Osiyoning qoloqligi sabablaridan biri beklar va xonlarning uzoqni ko'tib bilmaydigan ichki va tashqi siyosatlarni noto'g'ri ekanligini chuqur qayg'u bilan tasvirladi. Ularni zamondan taraqqiyotdan orqada qolganini fjeali oqibatlarini ochib tashladi.

Sharq davlatlari o'zaro urushlar va ichki nizolar girdobida qolganliklari sababli birin ketin mustamlaka davlatga aylana boshladi. Sharqning Xitoy, Eron, Turon, Arabiston, va Hindiston singari davlatlari G'arbning Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya singari davlatlari ta'sir doiralari tushub qoldi.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida bunday ayanchli holatga tushgan Sharq davlatlaridan biri qo'shni Eron davlati edi. Abdurauf Fitrat Eronga nisbatan Angliya va Rossiyaning bsqinchilik siyosatini shafqatsiz, talonchiligini fosh qildi.

Eron davlati bu davrda qoloq agrar mamlakat hisoblanib Angliya va podsho Rossiyasini yarim mustamlakasi edi. Eron hududining bir qismida urush-janjallarni davom etishi, moliya tizimining izdan chiqishi mamlakat iqtisodini xarob holatga keltirgan edi.

Angliya va Eron munosabatlari to'g'risida Abdurauf Fitrat quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi. Eronning tashqi siyosatini zaif tomonlarini yaqqol ko'rsatdi Angliyaning Eronga nisbatan munosabati, Eron hukumdorlarini no'noqligi naqadar ojizligini shunday tavsiflaydi: "Shul besh yillik urushda Eron hukumati Angliz yo'ldoshlarig'a ko'p yaxshilik qildi. Dindoshlari bo'lgan turklarga qo'shilmadi. Qo'shilg'an qabilalarg'a "yog'iy" deb qaradi, yov muomilasi qildi. Angliz

²⁰ Qarang, A. Fitrat. Tanlangan asarlar Toshkent "Ma'naviyat" 2003 yil Sharq siyosati 221-bet

qo'shinig'a yo'l berdi. Urush bitgach mal'un Anglizlar unga huppokda bermadilar. Eron vakilini sulh majlisiga kirgizmadilarkim, Eron istiqlolini qabul etmadilar demakdir. Shoh Lo'ndiraga borib, ehtimolkim Angliz kuchi ostinda, Eron istiqlolining o'lim qog'ozinda qo'l qo'yib kelar"²¹

Darhaqiqat bu davrda Eron davlati siyosiy va iqtisodiy jihatdan zaif, yarim qaram holatga tushib qolgan edi. Ichki, tashqi savdo, ekin maydonlari, chorva mollari qisqarib ketgan edi. Non va oziq ovqat mahsulotlarining narxi keskin ko'tarilib ketdi. Chayqovchilik avj olib, ocharchilik, tif va boshqa epidemiyalar yoyilgan edi. 10-12 million aholidan yarmidan ko'pi o'troq dehqonlardan iborat edi, aholining to'rtidan biri ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalar (kurdlar, lurlar, bulujlar, turkmanlar, arablar va boshqalar) edi. Yigirma foiz atrofida aholi shaharlarda yashardi.

Eron qishloqlarida feodal munosabatlar hukmronligi davom etib kelardi. Ko'pchilik yeridan ajragan dehqonlar og'ir shartlar asosida pomeschiklar yerida ishladilar. Ular siyosiy huquqsiz bo'lib, qishloqlarda mahalliy ma'murlar va pomeschiklarni o'zboshimchaligi hukmronlik qilardi. Dehqonlarning asosiy qismi yersiz ijarachilar va batraklar edi.

Shaharlarda hunarmandchilik keng yoyilgan, fabrika, zavod sanoati deyarli yo'q edi. Mamlakat janubi G'arbida neft sanoati, baliqchilik chet el korxonalaridan boshqa Eron burjuaziyasiga qarashli kichik elektrostansiyalar, to'qimachilik, teri va boshqa korxonalariga bor edi.

Yirik savdogarlar yirik yer egalari chet el kapitali bilan bog'langan bo'lib, ularni manfaatlari shahar mayda burjuaziyasi, sekin o'sib borayotgan milliy burjuaziya manfaatlaridan keskin farq qilardi. Eronda 1906-1907 yildagi konstitutsiya bilan cheklangan xojalar feodal dinastiyasi boshchiligidagi monarxiya tuzumi mavjud edi. Urushning oxirgi yillarida Eronda amalda hokimiyat Angliya va Rossiya generallari tasarrufida edi. Rossiyada feodal inqilobidan keyin Angliya mavqeyi yanada mustahkamlanib Eron deyarli

²¹ Qarang.A.Fitrat. Tanlangan asarlar Toshkent "Ma'naviyat" 2003 yil Sharq siyosati 221-bet.

Angliyaning mustamlakasiga aylantirildi. Eron davlati mustamlakachilik tazyiqi ostida ko'plab azob uqibatlariga duchor etildi. Bu haqda Abdurauf Fitratning quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin "Mustaqil bir Sharq davlati bo'lg'on Eronning buyuk mujtahidlari Rossiya va Angliz konsullarining tilaklari bilan dorg'a osildilar. Nikolay hukumati zamonida rus qo'shini Imom Alirizoning sharafini to'pga tutdilar, Anglizlar butun musulmon dunyosining muqaddas imomi bo'lgan Hazrat Alining ravzasig'a to'p otdilar..."²²

Darhaqiqat rus va ingliz hukumati ma'murlari Eron xalqining milliy qadriyatlarini, haq huquqlari bilan umuman hisoblashmadi, aksincha bu xalqning yetuk ziyolilari mamlakatdan quvg'in qilindi. Muqaddas ziyoratgohlari esa oyoqosti qilinib, toptaldi. Bunday shafqatsiz siyosatdan norozi bo'lgan Eron xalqi milliy ozodlik kurashini boshladi.

Boshlangan milliy ozodlik harakatini bostirish, uni Hindistonga yoyilishiga yo'l qo'ymaslik shuningdek, Eronni to'la asoratga solish, uni tabiiy boyliklarini talash Angliyaning va Rossiyaning asosiy maqsadi edi.

XX asr boshlariga kelib Tehronda Angliyaparast Vosug'-ut-Davla hukumati tuzildi va Konstitutsiyaga xilof ravishda majlis roziligini olmay Vosug'-ut-Davla ingliz-Eron bitimini imzoladi. Bitim ingliz maslahatchilari va instruktorlariga Eron armiyasi moliya, temir yo'l qurilish, tashqi savdo va Eronni ijtimoiy-iqtisodiy hayotini barcha sohalarini nazorat qilish huquqini berdi.

Inglizlar tezda bu rejani amalga oshirishga kirishdilar. Eron moliyasi ingliz moliya maslahatchisiga buysundirildi. Ingliz ofitser va instruktorlari eron qurolli kuchlari ustidan nazorat o'rnatdilar. Eron tashqi savdosida Angliya monopoliyasi o'rnatildi.

Inglizlar milliy ozodlik harakatini bostirishga intildilar, ularning Erondan don olib ketishlari, oziq-ovqat narxlarini yanada oshirib yubordi. Eron xalq ommasi Angliya okkupatsiyasiga antiimperialistik harakat bilan javob berdi. Harakat ayniqsa shimolda avj oldi.

²² Qarang, A. Fitrat. Tanlangan asarlar Toshkent "Ma'naviyat" 2003 yil Sharq siyosati 222-bet.

XX asr boshlarida Tabrizda shoxning ma'murlari va mustamlakachilarga qarshi Ozarbayjon demokratlari partiyasi rahbari shayx Muhammad Xiyoboniy boshchiligida qurolli qo'zg'olon boshlandi. Qo'zg'olonda ishchilar, hunarmandlar mayda burjuaziya, milliy savdo burjuaziyasi ziyolilar qatnashdilar. Ozarbayjon demokratlari eron-ingliz asoratli bitimiga qarshi chiqdilar. Ular Eronni respublika deb e'lon qilinishini, milliy mustaqilligini, demokratik islohotlar o'tkazishni va Ozorboyjonga avtanomiya berishni talab etdilar.

Tabrizdan gubernator va amaldorlar haydab yuborildi. Demokratlar Tabriz va Ozarboyjonni boshqa shahar va tumanlarida ham hokimiyatni qo'lga oldilar. Ocharchilik vaziyatida chayqovchilikka qarshi kurashdilar. Oziq ovqat mahsulotlari narxlarini tushirdilar. Maorif, sog'liqni saqlashni rivojlantirish bo'yicha tadbirlar ko'rdilar. Agrar masalani inqilobiy hal qilishga qarshi chiqdilar. Ayni vaqtda ular Tabrizga reaksiya va imperialistlar tarafdorlarini qurolsizlantirishga va shaharni mustahkamlashga doir chora tadbirlar ko'rmadilar. Demokratlar passiv mudofa taktikasini qo'lladilar. Oqibatda Inglizlar tomonidan uyushtirilgan va yaxshi qurollangan shoh qo'shinlari qo'zg'olonni ayovsiz bostirib Hiyoboniy va uning tarafdorlarini qirib tashladilar. Eron davlati XX-asrning 20-yillarida ham mustamlakachilik asoratidagi qoloq davlat edi.

XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida mustamlaka iskanjasiga tushgan Sharq davlatlaridan yana biri Xitoy davlati edi. Bu davrda Xitoy qoloq yarim feodal davlat bo'lib, uni Manjur sulolasiga mansub imperatorlar boshqarardilar. Xalqaro munosabatlarda bu davlat rivojlangan G'arb davlatlarining siyosati markazida turgan. Chunki Xitoy moddiy hamda mehnat resurslariga boy davlat hisoblangan. Bundan tashqari Xitoy davlati hududini ulkan sanoat bozoriga aylantirish va bu hududga mahsulotlarni ko'proq sotish ishtiyoqi Fransiya, Angliya, AQSH singari davlatlarning tinchini buzgan edi.

Bu haqda Abdurauf Fitrat o'zining Sharq siyosati nomli maqolasida "Necha yuz yildan beri chet yoqg'a chekilgan "Och qornim tinch qulog'im deb o'tirgan" siyosat dunyosining hech bir ishiga qatnashmagan Chin halqining dag'i rohati shul

Ovropa jahongirlari tomonidan buzildi.”²³ -degan fikrlarni aytadi. Olim Xitoyning yarim mustamlaka bo`lishi sabablaridan biri sifatida Xitoyning tashqi dunyodan ongli ravishda o`zini ajratib qo`yganligini aytadi. Xitoyning Yevropa fan-texnika yutuqlarini o`zlashtirmagani dunyo siyosatidan chetlashib qolganini natijasi edi.

Bu davrda Xitoy davlati bir qancha imperialistik davlatlar bilan urush harakatlari olib borishiga to`g`ri keldi. Fransiya-Xitoy (1800), Yaponiya-Xitoy (1894-95), Angliya-Xitoy urushlaridagi asoratli mag`lubiyatlar Xitoyni holdan toydirdi.

To`qqizta yirik davlatlarning “Xitoyga nisbatan siyosati to`g`risida 1892-yil 6-fevralda imzolangan shartnoma Xitoyning yaxlitligi va mustaqilligini e`lon qildi, ammo amalda uning yarim mustamlaka holatini mustahkamladi. Umuman olganda Xitoy davlatida o`zaro ichki nizolar va chet el intervinsiyasi asosan oddiy fuqarolar uchun ayanchli oqibatlariga olib keldi.

XX-asr boshlaridagi birinchi jahon urushi qiyinchiliklari Xitoy xalqiga og`ir yuk bo`lib tushdi. Urush davrida nisbatan biroz o`sgan milliy iqtisodiyotning bundan buyongi rivojlanishi yo`lida chet el imperializmi g`ov bo`lib turar edi. Xitoy kamchiliklari bilan Komprado burjuaziyaga tayangan imperialistik davlatlar mamlakatni iqtisodiy va siyosiy tarqoqligini har qanday yo`llar bilan qo`llab quvvatlab kelar edilar. Pekindagi markaziy hukumat kuchsiz edi. Viloyatlarda butun hokimiyat mahalliy feodallar bilan mustahkam bog`langan militarist-gubernatorlar qo`lida edi. Ular o`zlarini yollanma qo`shinlarini saqlar, aholiga ko`pdan-ko`p soliqlar solar va doim bir-birlari bilan dushmanlashib yurar edilar. 1920-yillarning boshida ham Xitoy oldingiday siyosiy tarqoq va melitaristlar o`rtasida to`xtovsiz urushlar davom etayotgan holatida edi.

Abdurauf Fitratning fikrini xulosasi sifatida Xitoy XIX-asrning ohiri XX-asr boshlarida xalqaro munosabatlarda Xitoyning mavqei tushib ketgan bo`lib, mustaqil davlat sifatidagi ahamiyatini deyarli yo`qotgan edi. Xitoy davlati va

²³ Qarang.A.Fitrat. Tanlangan asarlar Toshkent “Ma`naviyat” 2003 yil Sharq siyosati 222-bet

jamiyatiga tegishli bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy voqealarni ko'pchiligi Germaniya, Yaponiya, Italiya, Angliya, AQSH, Fransiya, Rossiya va Avstriya-Vengriya singari davlatlarning xohish irodasiga qarab hal qilinar edi degan tushunchaga kelish mumkin.

Abdurauf Fitrat Sharqning eng ko'zga ko'ringan mamlakatlaridan biri Turkiyani ayanchli ahvolini ham ko'rsatib berdi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlari Turkiya davlati tarixiga ham tushkunlik va parokandalik davri sifatida muxrlanib qoldi.

Ayniqsa XIX asrning oxirlarida sodir bo'lgan Rus-Turk urushi va bu urushda Turkiyaning mag'lubiyatga uchrashi Turkiyaning jahonda tutgan mavqeyiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1878 yil 13 iyunda Evropa davlatlari va Rossiya Berlin konfrensiyasida uchrashib rus-turk bitimini qayta ko'rib chiqdilar. Bir oydan so'ng "Berlin traktati" nomli xujjat imzolandi. Bolgariya davlati, Chernogoriya, Serbiya, Ruminiya mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Bosniya va Gersogovina Avstriya-Vengriyaga berildi. Rossiya Ardagan, Kars, Botum shaharlarini oldi. Rossiyaga Turkiyaning katta miqdorda tovon to'lashi belgilab qo'yildi .

XIX asrning oxirgi o'n yilliklarida Turkiya chet el davlatlariga yarim qaram holatga tushub qoldi. Turkiya rasman mustaqil davlat edi. Lekin aslida Angliya, Fransiya, Rossiya, Avstriya va Germaniya o'rtasida kurash maydoniga aylandi.

Bu haqda Abdurauf Fitrat quyidagicha fikr bildiradi. "Angliz, Fransuz jaxongirlarining Turkiya o'lkasida qilg'an ishlari davlatlar huquqiga, insof va adolat qonuniga butun muholifdir"²⁴. Olim Angliya va Firansiyaning Turkiyaga nisbatan mustamlakachilik siyosatini fosh qildi.

Darhaqiqat bu davrda Turkiyaga nisbatan iqtisodiy va siyosiy hujumlar boshlanib ketdi. Rivojlangan Garbning mustamlakachi davlatlari birin-ketin Turkiyaga qarashli hududlarni bosib ola boshladilar. Masalan Fransiya Tunisni, Angliya Misrni, Gretsiya Fessaliyani bosib oldi. Bundan tashqari iqtisodiy qaramlik tobora chuqurlashib bordi. Usmonli turk imperiyasidagi siyosiy

²⁴ Qarang.A.Fitrat. Tanlangan asarlar Toshkent "Ma'naviyat" 2003 yil Sharq siyosati 222-bet

harakatlar imperiya tarkibida milliy mustaqil davlatlar, jumladan, Turkiya mustaqil davlatini tuzmasdan turib, taraqqiyot yo'liga chiqib olishi mumkin emasligini ko'rsatdi. Turk milliy burjuaziyasi shovinistik yo'ldan borib, boshqa millatlarning taraqqiyparvar harakatini birlashtira olmadi.

Ana shunday bir sharoitda Rossiya va Eronda bo'layotgan inqilobiy voqealar Turkiyaga ham katta ta'sir ko'rsatdi. "Yosh turklar" asoschilaridan biri Abdulla Javdat o'z vatandoshlariga murojaat qilib, "barcha ezilgan musulmon va musulmon bo'lmaganlar birlashingiz" deb xitob qildi. Mamlakatda aholining bir qancha qatlamini o'z ichiga olgan inqilobiy harakat tarafdorlari o'zlarini yosh turklar deb atay boshladilar.

Bo'lajak inqilobiy harakatlarning yo'l boshchisi Mustafu Otaturk "Vatan" nomli tashkilot tuzdi. Tashkilot yosh turklar harakatiga birlashib ketdi.

XX asr boshlarida Turkiyada davlat to'ntarishi bo'ldi. Abdulhamid taxtdan tushurildi. O'rniga Maxmud V Rishod taxtga o'tirdi. Yosh turklar hokimiyatni qo'lga kititdilar 23 iyul milliy ozodlik kuni deb e'lon qilindi. Yosh turklar hokimiyat tepasiga keldi. Biroq, xalq ommasining talablari to'la qondirilmadi. Italiya Tripolitaniyani qaytarib oldi. Bularda "Yosh turklar"ni ayblagan inglizlarga xayrixoh "Hurriyat va bardamlik" partiyasi 1912 yilda davlat to'ntarishi qildi. Turkiya Tripolitaniya va Krenashka, Shimoliy Afrikadagi yerlarini Italiyaga topshirdi. Bu yerlar "Liviya" nomi ostida Italiyaning mustamlakasiga aylandi. Lekin Turkiya tinchlikka erisha olmadi. Bolgariya, Serbiya, Chernogoriya, Gretsiya birgalikda Turkiyaga urush e'lon qildi. Turkiyaning Makedoniya va Fransiyaga muxtoriyat bermagani urushga bahona bo'ldi.

Urush Bolqon davlatlari foydasiga hal bo'ldi. Bolqon yerlari g'oliblar o'rtasida taqsimlandi. Albaniya mustaqil knyazlik deb e'lon qilindi. Lekin Bolqon davlatlari o'zaro taqsimlashda kelisha olmay urush boshlab yuborishadi. Vaziyatni nazorat qilolmagan "Hurriyat va bardamlik" hukumatini 1913 yil yanvarda Anvar poshsho isyon ko'tarib ag'darib tashladi. Yana hukumat tepasiga yosh turklar

keldi. Mamlakatda Germaniya ta'siri kuchaydi. 1913 -1914 yildan Yosh turklar harakatiga qarshi kurash boshlandi.

Birinchi jahon urushi Turkiya va uning ittifoqchilari uchun muvaffaqiyatsiz yakunlandi. Urush Turkiyaning ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy ahvoliga og'ir ta'sir qildi. Mamlakatda inqilobiy ko'tarilish boshlandi. Kavkaz janglarida Turkiya qo'shinlari og'ir muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

G'olib Antanta davlatlari amalda Turkiyaning xoxlagan yerini okupatsiya qilish huquqini oldilar. Bu haqida Abdurauf Fitrat "Turkiyaning toshlar va kesaklaridan har birini ko'tarib qarag'anlar Ovrupalilar tomonidan to'kilgan qon tomchilarig'a uchrarlar. Turkiyaning doxiliy ishlarig'a qo'l uzatmoq, Turkiyaning taraqqiy yo'lini bog'lamoq, Turkiya hukumatining e'tiborini yo'q qilmoq ovrupalilarg'a o'yinchoq bo'lib qolg'an edi"²⁵ -degan fikrlari bilan Turkiyadagi ijtimoiy siyosiy vaziyatini tushuntirishga harakat qiladi.

Turkiya va Antanta o'rtasida yarashuv bitimi tuzilgandan keyin sulton Mahmud VI Vohiddidin va uning hukumati Antanta mamlakatlari qo'lida amalda qo'g'irchoq bo'lib qoldi.

Yarashuv bitimi tuzilishi bilan Angliya turk xalqini asoratga solish, Turkiyani o'z mustamlakasiga aylantirish uchun o'z qo'shinlarini Turkiya hududiga kirita boshladi. Yarashuvdan keyingi 6 oy ichida Angliya Anatoliyaning janubiy –Sharqiy qismini, Fransiya bilan birga esa Sharqiy Frakiyani va qora dengiz bo'g'ozlari zonasini okupatsiya qildi. Bu voqealarni Fitrat quyidagicha izohlaydi "Turkiyaga tobe bo'lg'an "Qarib" otasindag'i musulmonlarning yozug'siz bolalari ona qorinidan chiqib turib o'tga solindilar".²⁶

Angliya imperialistlarining agressiv harakatlari okupatsiya qilingan hududlaridagi o'zboshimchalik va zo'rovonlik turk halqining noroziligini uyg'otdi. Urush yillaridayoq tuzilgan partezan otryadlari endilikda interventlarga qarshi

²⁵ Qarang, A. Fitrat. Tanlangan asarlar Toshkent "Ma'naviyat" 2003 yil Sharq siyosati 222-bet

²⁶ O'sha joyda

kurashga kirishdilar ayni vaqtda shaharlarda ayniqsa Istambulda ishchi tashkilotlari o'z faoliyatlarini ko'rsatdilar.

Ular orasida Turkiya sotsialistik ishchi-dehqon partiyasi o'z o'rnini egallab bordi. XX asrning 20-yillariga kelib Turkiya davlatida ijtimoiy va siyosiy harakatlar kuchaya bordi. Bu vaqtda turk xalqining milliy qahramoni Mustafa Kamol Otaturk tarqoq bo'lgan huquqlarni ximoya qilish jamiyatlari tashkilotlari faoliyatini avj oldirib yubordi. Shunday qilib imperialistlarning qo'g'irchog'i bo'lgan sulton hukumatiga qarama-qarshi tarzda burjua inqilobiy hukumatining kurtagi paydo bo'ldi va u Turkiya qurolli kuchlar qoldiqlari, harakatga kelgan dehqonlar shahar demokratik elementlariga tayanib mustaqillik uchun kurashga rahbarlik qila bordi.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida xalqaro munosabatlarda og'ir ahvolga tushgan va rivojlangan G'arb davlatlari tomonidan asoratga solingan Sharq davlatlaridan yana biri bu Afg'oniston davlati edi. XIX asrning oxirlarida Afg'oniston Rossiya bilan Angliya o'rtasida bahs munozaralarga sabab bo'lgan mamlakat edi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonning tashqi siyosatida Afg'on amirlari bu vaziyatdan unumli foydalanishga harakat qilganligining guvohi bo'lamiz. Bu yo'lda Afg'oniston hukumatining amiri Yoqubxon amir Abdurahmon singari amirlari o'z ichki va tashqi siyosatlarida inglizlar bilan yaqinlashish yo'lini tanladilar. Bu siyosat natijasida nafaqat Afg'oniston shu bilan bir qatorda Turkiston xalqlari ham Angliya ta'sir doirasiga tushib qolishi mumkinligini siyosatshunos olim Abdurauf Fitrat quidagicha izohlaydi:

“Anglizlar bilan Turkiston orasida Afg'on va Chin hukumatlari bordir. Ajabo Britaniya tulkilari Turkistonimizg'a burunlarini suqmoq uchun Chin hukumati bilan onglashadilarmi Afg'on hukumati bilanmi?

Og'uz xabarlarig'a qarag'anda har ikkisi bilan ham onglashg'an; hatto Afg'on hukumati bilan ittifoqi kuchliroqg'a o'xshaydirlar. Lekin biz shul Afg'on

va Angliz ittifoqini qabul qilmaymiz”²⁷. Haqiqatdan ham XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Afg'onistonning xalqaro ahvoli to'la ma'noda Rossiya va Angliyani o'zaro munosabatlariga bog'liq edi.

Amir Abdurahmon bu murakkab sharoitda bu ikki yirik mustamlakachi davlat kelishmovchiliklaridan ustalik bilan foydalandi. Inglizlar yordamida Qobulda kuchli harbiy isteh'kom va aslaha xona qurildi, lekin inglizlar ham bu yordamlar Afg'on hukumatiga behuda berilmayotganligini ko'rsatdi. Yangi ingliz-afg'on urushidan cho'chigan Abdurahmon inglizlar bilan bitim tuzib, janubdagi afg'on qabilalarining ko'pchiligi inglizlar qaramog'ida deb tan olishga majbur bo'ldi. Bu siyosiy va hududiy jihatdan katta mag'lubiyat edi.

Bunga javoban afg'onlar qo'zg'alon ko'taradilar mamlakat qabila-qabila yo'nalishida bir necha bo'laklarga bo'linib ketdi. XX asr boshlaridan boshlab afg'on amirlari Rossiya bilan yaqinlashish yo'lini tutdilar. Ammo Afg'onistonda inglizparast amirlar hokimiyat tepasida bo'lganligi sababli mamlakat Angliya ta'siri ostida edi. Birinchi jahon urushi oxiriga kelib Afg'onistonda milliy ozodlik harakati avj oldi. Inglizparast amir Xabibullaxon hukumatiga nafrat va g'azab o'sib bordi.

Bundan tashqari Afg'on hukumati birinchi jahon urushi yillarida Angliya uchun xizmat qiladi. Afg'on hukumatining inglizlar bilan yaqinlashishi siyosatini tutishi A. Fitratning nazarida Turkiston va Turkiyani inglizlar tomonidan asoratga solinishi uchun yo'l ochib berish edi. Bu siyosat natijasi og'ir asoratlarga olib kelishi mumkinligini tushingan A. Fitrat bu holatni “Bir vaqtlar o'zini Turk davlatining bir kashishi atag'an Afg'on hukumati turk siyosatiga shuncha molik bo'lg'an bir masalani qabul qilarmi?”²⁸ -degan ochiq fikrlari bilan e'tirof etadi. Darhaqiqat XX asr boshlari xalqaro munosabatlarida boshqa Sharq mamlakatlari singari Afg'oniston davlati ham chigal va murakkab siyosiy vaziyatda qolgan edi.

²⁷ Qarang. A. Fitrat. Tanlangan asarlar Toshkent “Ma'naviyat” 2003 yil Angliz va Turkiston 204-bet

²⁸ O'sha joyda

Ayniqsa inglizlarning Afg'on hukumati ishlariga uzluksiz aralashuvi mamlakat ichki hayotida siyosiy nizolarning kuchayib ketishiga sabab bo'lgan .

“Angliya bilan ittifoq etmak- german va turkga qarshi chiqmoqdir. Afg'on hukumati bu yo'lga kirarmi? Ingliz hiylasining ta'siri buyukdir, ehtimol, kim Afg'on hukumati ham aldang'andur...”²⁹, A. Fitrat ushbu filrlari bilan Afg'on hukumatining noqulay vaziyatga tushub qolganligini e'tirof etadi.

Afg'onistonda Xabibullaxon siyosatiga qarshi harakatlarga “yosh afg'onlar” harakati tarafdorlari boshchilik qilgan. Bu harakat safida progressiv ruhdagi afitserlar, hukumat amaldorlari , milliy savdogarlar va birmuncha liberal kayfiyatdagi pomeshcheklar birlashgan bo'lib, ular mamlakat mustaqiligiga erishishga konstitutsiya joriy etish,ayrim fuqaro huquqlarini e'lon qilish, markaziy hokimyatni kuchaytirish talablarini ilgari surdilar. Amirning o'g'li Omonullaxon shu harakatga yaqin turardi hamda uni qo'llab quvvatlardilar.

Amir Xabibullaxon suyqasd natijasida o'ldirilgandan so'ng, mamlakatda ikki hokimyatchilik paydo bo'ldi. Inglizlar Nasrullaxonni Jalolobodda amir qilib ko'targan bo'lsalar, Qobulda esa harbiy garnizon aholi yordamida Omonullaxonni amir deb e'lon qildi. Omonullaxon hukumati darhol 28-fevralda Afg'onistonning ozod, mustaqil va suveren davlat bo'lishi to'g'risida manifest chiqardi. Oradan ko'p o'tmay qo'shni sobiq RSFSR hukumati mustaqil afg'on davlatni tan oldi va mustamlakachilarga qarshi kurashda yordam berishni bildirdi.

Natijada uchinchi ingliz-afg'on urushi kelib chiqdi. Lekin Angliya hukumati Afg'onlarga nisbatan bir necha barobar ko'p qo'shini bo'lsada Afg'oniston ustidan o'z nazoratini o'rnata olmadi. Angliya mustamlakalariga qarshi qo'zg'alon ko'targan pushtun qabilalari hind- afg'on chegaralarida afg'on qo'shinlariga faol harbiy yordam ko'rsatdilar. Ingliz agressorlarining ahvoli Hindistonda antiimperialistik harakatini ko'tarilishi bilan murakkablashdi.

Urush davomida inglizlar tomonidan zo'rlab safarbar etilgan ko'plab hind askarlari bosqinchilikda qatnashishdan bosh tortib qurollari bilan afg'onlar

²⁹ Qarang.A.Fitrat. Tanlangan asarlar Toshkent “Ma'naviyat” 2003 yil Ingliz va Turkiston” 204-bet

tomoniga o'tib ketdilar. Shu paytda Afg'oniston xaqaro vaziyat o'zi uchun qulay bo'lganidan foydalanib butun kuchni Hindiston chegarasidagi inglizlarga qaratdi. Ingliz qo'mondonligi, odam soni harbiy texnikaviy ustunligiga qaramay yarash bitimini tuzishga majbur bo'ldi shartnimaga ko'ra Afg'oniston mustaqilligi tan olindi.

XIX asr oxiri XX asr boshlari xalqaro munosabatlarida o'z o'rnini va haq huquqlarini boshqa davlatlarni qarorlari va xohish istagi bilan belgilagan Sharq mamlakatlaridan yana biri Hindiston edi. XIX asr oxirlari Hindiston xalqi uchun mustamlakachilikning yangi ko'rinishlari kuchaygan payt edi. Angliya tomonidan hind xalqini ekspluatatsiya qilishning kuchayishi va milliy ozodlik harakati keng avj olishi bu davrga juda xos xususiyat. Asosiy iqtisodiy aloqalar Angliya davlati bilan olib borildi. Hindistonda sanoatni Angliya o'ziga qulay qilib joylashtirishga harakat qildi. Asosiy sanoat korxonalarini dengiz bo'yi port shaharlari bo'yida edi. Bu haqda Abdurauf Fitrat quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi. "Ovrupa jahongirlarining qoidalari buyuk quroqlari, Sharqdan deb yer olg'anlari ingliz hukumatidir. Sharqning oltun xazinalari bo'lg'on Hindiston qit'alari inglizlar jahongirlarining qo'lidadir. Lekin bu hokimlik adolat qonunlarig'a muvofiq tenglik negizlariga qarab ko'rulmagan"³⁰. Haqiqatdan ham ingliz mustamlakachilik siyosati boshqa mustamlakachi davlatlarning qo'l ostidagi xalqlarni ezishi uchun alohida ahamiyat kasb etgan. Chunki G'arbning mustamlakachi Fransiya, Portugaliya singari davlatlari o'z mustamlakalarini ayovsiz ekspluatatsiya qilish ishlarida ingliz mustamlakachilik siyosatidan andoza olib undan samarali foydalanishga harakat qilgan.

Hindiston XIX asr oxirida dunyo bozoriga katta miqdorda sanoat va qishloq xo'jaligi mollari chiqara boshladi. Lekin olingan daromat faqatgina ingliz mustamlakachilarni boyitdi. Mehnatkashlar ahvoli esa tobora yomonlashdi. Bengaliya kanop, Assam choy, Bombay va Markaziy Hindiston paxta Panjob bug'doy yetishtirishga ixtisoslashdi. Lekin texnik ta'minotda hech narsa

³⁰ Qarang, A. Fitrat. Tanlangan asarlar Toshkent "Ma'naviyat" 2003 yil Sharq siyosati 218-bet

o'zgarmadi. Dehqonlar va oddiy xalq yanada ezildi. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Hindistonda 20 martadan ko'p ocharchilik bo'lib bu ocharchiliklar natijasida 18 mln hind xalqi qirilib ketdi.

Bundan tashqari fuqarolar haq- huquqlari ham toptalgan. Oddiy ingliz fuqorosiga hind xalqining mansabdor kishilari ham hurmat izzat bildirishlari shart bo'lgan. Sud mahkamalari ham hindlar uchun alohida inglizlar uchun alohida bir-biriga o'xshamagan holda faoliyat yuritgan. Bu haqda Fitrat o'zining Sharq siyosati nomli asarida "Hindistonning egalari bo'lgan yerli xalq bilan qo'noq bo'lib kelgan ikki uch qadrsiz ingliz orasida tenglik yo'qdir. Hindistonda yerlilar uchun boshqa, inglizlar uchun boshqa mahkamalar bor"³¹ -degan fikrlarni ochiq bayon etadi. Yana u o'z so'zida davom etib "Ingliz jahongirlarining Hindistondagi pitalari Hindiston xalqini oqchasiz, yap-yalang'och quyub halok etmakdir. Ingliz hukumati Hindistondan yilda to'rt yuz ellik milyo'n so'm oladir. Shuncha oqchadan Hindiston xalqi uchun bir chaqaliq foyda yo'qdir. Har yili Hindiston xalqining yuzdan uchtasi ochliqdan o'lib ketadir"³² -degan achchiq fikrlarni keltirib o'tadi.

Bunday ahvol Hindistonda milliy ozodlik va ijtimoiy harakatlarga olib keladi. Dehqonlarning stixiyali harakatlari kuchaygan sari Britaniya mustamlakachilari Hindistondagi reaksiyon kuchlar-knyazlar, pomeschiklar, kompradorlar bilan yaqinlashib, musulmonlar bilan hindlar o'rtasida janjal chiqarishga harakat qildilar.

Umuman olganda Hindistonning xalqaro ahvoli to'liq Angliya nazorati ostida bo'lib uning ichki va tashqi ishlarini ingliz ma'murlari boshqarar edi. Birinchi jahon urushi yillarida Angliya Hindistonning odam va moddiy resurslardan keng foydalanadi. Armiyaga 1 mln dan ortiq kishi chaqirildi. Yarim mlnga yaqin hindlar urushning olib borilishi bilan bog'liq Hindistondan tashqarida turli ishlarni bajarishga jalb qilindi. Angliya hukumati harbiy zayom chiqardi va

³¹ Qarang.A.Fitrat. Tanlangan asarlar Toshkent "Ma'naviyat" 2003 yil Sharq siyosati 218-bet

³² O'sha asar 219-bet.

hind aholisi orasida majburiy ravishda uni tarqatdi. Angliya Hindistondan don, turli materiallar, relslar, patronlar, sovuq qurollar olardi. Harbiy harajatlar va Hindistondan ko'plab tovarlarni olib ketilishi munosabati bilan ko'p tovarlar ayniqsa oziq-ovqat mahsulotlari narxi tez oshib ketdi, qog'oz pullarni qadri esa tushib ketdi.

Urush yillari hind sanoatining ayniqsa ip yigirish sanoati bir muncha rivojlanish uchun qulay sharoit vujudga keldi. Angliyaning to'qimachilik sanoati armiya ta'minoti ehtiyojlari munosabati bilan hind bozoriga e'tibori susaydi. Ayni paytda Angliya hukumati hind bozorini AQSH va Yaponiya tomonidan egallanishidan xavfsirab Hindistonga keltiriladigan tovarga boj to'lovini osirdi. Natijada Angliya va boshqa mamlakatlardan keltiriladigan gazlamalar urush davrida 2 martadan ko'pga kamaydi.

XX asr boshlarida Hindistonda hosilsizlik bo'lib, mamlakatda ocharchilik boshlandi. Shu yili Hindistonni urushdan keyin o'z-o'zini boshqarish haqidagi ingliz hukumati va'dalariga Angliya hukumatining urush tadbirlarida yordam berdi. Hindistonning asosiy burjua partiyasi milliy Kongress liderlari hukumatiga armiyaga soldatlarni jalb etish va urush zayomlarini tarqatishda yordam beradilar. Birinchi jahon urushi tugaganidan so'ng Hindistonning qonun chiqaruvchi majlisi Angliya tomonidan Hindistonning "Harbiy jihatdan himoya qilishi uchun" oxirgi harbiy zayomni qaytarmaslik va urush davrida olib ketilgan tovarlarni haqini to'lamasligiga rozi bo'ldi.

Bu jarayonlarning barchasi hind xalqi boshiga azob olib keldi. Hindistonning birinchi jahon urushiga tortilishi va bu urushdan faqatgina Angliya manfaatdor bo'lganligi to'g'risida Abdurauf Fitrat o'zining Sharq siyosati nomli asarida "Hindistonlilar ham shul urushda anglizlarga qancha hidmat qildilar, qonlarini angliz foydasi yo'lida suvdek to'kdilar. Hind musulmonlari o'zlarining halifalari bo'lg'an Turkiyaga hujum etdilar, Dardoniya yonida qancha dindoshlarini shahid etdilar. Angliz hukumati yolg'uzg'ina shul hind oqchasi va shul hind qo'shini bilan Olmoniya va Turkiyani yenga bildi. Urush bitgandan keyin angliz hukumati shul

jonkuyar hindlarga qarab: “sizning ko’mingiz bilan, shuncha ish bo’ldi, mana bu xaqni oling, siz maning do’stlarimsiz” deydimi? Albatta yo’q...! Bu kun hind xalqining uyi yana shul ingliz to’pi bilan yiqilib yotar, bu kun hind ulusining boshi yana shul ingliz qilichi bilan kesilib turadir”³³ -degan fikrlarni keltirib o’tadi.

Darhaqiqat XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Hindiston davlatining xalqaro ahvoli, ichki va tashqi vaziyat ayanchli holatga kelib qolgan edi. Buning bosh sababi Angliya hukumatining mustamlakachilik siyosatini kuchaytirish va xalqaro maydondagi obro’sini qayta tiklashga urinish edi. Bularning barchasi Hindistonda xalq noroziligi harakati va mustaqillik uchun kurashishning avj olishiga olib keldi. Antiimperialistik harakatni ko’tarilishi ishchi guruhlarining ish tashlashlari bilan boshlandi. Bombay to’qimachilaridan 125 ming kishi ish tashlash namoyishlari o’tkazdi.. Bunga javoban inglizlar Roulette deb nomlangan qonun qabul qildi. Bu qonun mustamlakachi ma’murlar va politsiyaga favqulotda huquqar berardi. Milliy kongress bu qonunga qarshi chiqdi, Gandi chaqirig’i bilan Panjobga, Birlashgan qo’shma provinsiyalarida, Bihar, Kalkutta, Madarasda xartallar ya’ni ish to’xtatish, savdo, o’qishni to’xtatish, ommavay miting, namoyishlar o’tkazildi. Harakatga ishchilar, xizmatchilar, talabalar, hunarmandlar Hindistonning barcha dinlari vakillari-induslar, musulmonlar, sikhlar, xristianlar qatnashdilar. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Hindiston davlati rivojlangan G’arb davlatlarining biri bo’lgan Angliyaning mustamlakasi edi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin.

-demak Abdurauf Fitrat Yevropaning rivojlangan mamlakatlarining Sharqqa nisbatan mustamlakachilik siyosatini atroflicha o’rganib, xolisona ochib beradi.

-siyosatshunos olim sifatida har bir Sharq mamlakati misolida (Eron, Xitoy, O`rta Osiyo, Hindiston, Afg`oniston) Yevropaning munosabatini chuqur tahlil qiladi.

-olim o`zining “Sharq siyosati” asarida ilgari surilgan fikrlar siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy yo`nalishlarda Sharq dunyosining zaif tomonlarini ochib bergan.

³³ Qarang.A.Fitrat. Tanlangan asarlar Toshkent “Ma’naviyat” 2003 yil Sharq siyosati 221-bet

-siyosatshunos olim sifatida Abdurauf Fitrat tadqiqotda qiyosiy tahlil metodidan atroflicha umumli foydalangan.

II. Bob. ABDURAUFI FITRATNING SIYOSIY MEROSIDA TURKISTON OZODLIGI MASALASI

2.1. Abdurauf Fitrat XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonning siyosiy holati to'g'risida.

Siyosatshunos olim sifatida Abdurauf Fitrat rus mustamlakachiligining fojiali oqibatlarini keng qamrovli tasvirladi va rus mustamlakachiligi natijasida Turkiston xalqlarining ilg'or va zamonaviy madaniyatdan ajralib qolganligini o'zining bir qator asarlarida asoslab berishga harakat qiladi. U shuningdek Turkiston fuqorolarining Yevropadagi ijtimoiy iqtisodiy hamda siyosiy fikrlardan bexabar ekanligini afsus bilan etirof etadi. Jumladan uning "Turkistonda ruslar" nomli maqolasida shunday fikrlarga duch kelamiz. "Yurtimiz ellik yillik bir askariya ostida turdig'i uchun biz Ovrupaning madaniy millatlari bilan ko'risholmadik, unlarning ijtimoiy va iqtisodiy fikrlaridan istifoda qilolmadik. Bizning ko'zlarimizni ochdurmaslik uchun, fikri ochiq totor qarindoshlarimizning daxi Turkistonda maktab ochmoqlari man etildi."³⁴

Rus mustamlakachiligini og'ir asoratlaridan biri o'lkamizning madaniy jihatdan Yevropani fan-texnika, markazlaridan uzib qo'yilganini og'ir fojeali natijalarga olib kelganini ko'rsatib berdi. Bu yerda mustamlakachilarning aynan Turkistonni mahdudlikda uzoq ushlab turishni makkorona yo'lini tanlaganini fosh qiladi.

Rus hukumati Markaziy Osiyoni bosib olgandan so'ng o'zining mustamlakachilik siyosatini yurita boshlagan edi. Bunda tashkil qilingan Turkiston general gubernatorligi muhim rol o'ynaydi. Bu general gubernatorlik 50 yil (1867-1917) davomida markaz tomonidan tayinlangan general gubernatorlar tomonidan qattiqqo'llik va jabr zulm asosida boshqarildi.

³⁴ A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild "Turkistonda ruslar" maqolasi T. Ma'naviyat 2003 yil 202-bet.

Siyosatshunos rus mustamlakachilarining uzoqqa muljallangan mustamlakachilik siyosatini chuqur tahlil qilgan holda ular yuritgan siyosatni siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy jihatlarini ochib beradi.

Turkiston general gubernatorligi tomonidan iqtisodiy zo'ravonlik siyosati bilan birga Turkistonga mafkuraviy tazyiq o'tkazib uni xalqini ruslashtirish siyosatini olib borayotganligini ochiq tushunadi. Bu siyosatda ommaviy axborot vositalaridan, ta'lim tizimidan rus ma'muriyati ustalik bilan foydalanganligini ustalik bilan fosh qiladi.

Haqiqatdan ham rus davlatining O'rta Osiyodagi ma'murlari bu yerda zo'r berib mustamlakachilik siyosatini mustahkamlashga harakat qildi. Jumladan 1867-1882 yillarda Turkiston general - gubernatori lavizimida bo'lgan fon Kaufman imperatorga yuborilgan maktublarining birida Markaziy Osiyo madaniyatini ijtimoiy taraqqiyotini uch yuz yil orqaga surib yuborganligi to'g'risida maqtanib yozgan edi.

Bundan tashqari I -jahon urushi yillaridagi xalqaro vaziyatni atroflicha tahlil qilgan Fitrat Turkistonni mustaqillik uchun yo'li borligini aytadi. Rus davlatida hukm surayotgan ikki hokimiyatchilik siyosati va qolaversa ruslarning I-jahon urushidagi asoratli mag'lubiyati Fitratda vatanni mustaqillik yo'liga olib chiqish umidini o'yg'otgan edi. "Rusiyaning musibat ustiga musibat bosayotibdir. Rusiya amrinda endigi tuyoqlar ostida yotibdir, deyarg'a bizni majbur qilur. Voqea rig'o kabi chidamli bir qo'rg'onning uch kunda ketmasi Boltiqdagi kimsalarning chopibg'ina anglamasi yolg'iz ishtahalarni emas, o'z istiqbollardan ruslarning o'zlarini dahi mayus qilur,.."³⁵ ushbu fikrlari orqali Fitrat ruslarning Boltiq bo'yida olib borilgan muvaffaqiyatsiz urushlarining manzarasini chizadi. Rus davlatini Turkistonda olib borgan mustamlakachilik siyosati Turkiston xalqlarini ularga qarshi qo'zg'olon harakatlarini olib borishga majbur etdi.

³⁵A. Fitrat Tanlangan asarlar III-jild "Siyosiy hollar" maqolasi T. Ma'naviyat 2003 yil 197-bet.

Ana shunday qo'zg'olonlardan eng yirigi 1916 yilda sodir bo'ldi. Rossiya davlat dumasining Turkistondagi 1916 yildagi voqealariga bag'ishlangan yopiq majlisi qo'zg'olon sabablari haqida aniq ma'lumotlar beradi.

Jadidlar tomonidan Rossiya dumasiga "Mardikorlikka olish" masalasiga doir arz qilingandan so'ng, o'lkadagi ahvol bilan tanishish uchun mehnatkashlar fraksiyasi vakili A.F.Kerenskiy va musulmonlar fraksiyasi vakillari Qutlug' Muhammad Botirgayev, Tevkelevlardan iborat komissiya tuziladi va Turkistonga yuboriladi.

Bu voqealarni Abdurauf Fitratning quyidagi fikrlari ham tasdiqlaydi. "So'ng xabarlarga ko'ra Kerenskiy tevarakdan to'plab keturdigi qo'shin bilan bolsheviklarni yengmish va Petrog'radni unlarning qo'lindan yangidan olmishdir"³⁶

Darhaqiqat Petrograd aholisi tomonidan ko'tarilgan namoyish hukumat qo'shinlari tomonidan bostiriladi va ikki hokimiyatchilik tugatiladi. Hokimiyat vaqtinchalik Muvaqqat hukumat qo'liga o'tadi. Hukumatda bir qancha o'zgarishlar qilindi. Mehnatkashlar fraksiyasi rahbari Kerenskiy bosh vazir qilib saylanadi. Jadidlar talabiga ko'ra 1916 yil voqealari Davlat dumasi muhokamasiga kiritiladi va o'sha yili 13 va 15 dekabr kunlari yopiq eshiklar ortida muhokama etiladi.

"A.F.Kerenskiy Nikoloy II ning 1916 yil 25 iyundagi farmoni Rossiya imperiyasining qonunchiligida ko'rsatilgan hollarga zid ravishda qabul qilinganini ta'kidlaydi."³⁷ Mardikorlikka olish to'g'risidagi farmon natijasida mahalliy ma'murlar-ellikboshlar, qishloq oqsoqqollari va rus ma'murlari aholini ayovsiz talagan. Kerenskiy o'zi guvohi bo'lgan voqealarga quyidagicha izoh beradi.

"Ular odamlarning sonini cho'ntaklariga solingan pulga qarab aniqlashgan Men o'z ko'zim bilan ko'rgan 60 yoshli qariya ro'yxatga 30 yosh deb yozilgan, chunki 300 so'm pora to'lashga qurbi yetmagan, 25-30 yoshli yigitcha boyvachaligi tufayli 50 yosh deb qayd etilgan. Siz quvilgan, haydalgan, tahqirlangan aholining ahvolini bir tasovvur etib ko'ring. Erlari tortib olinib ocharchilik yo'qchilikka

³⁶A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild "Siyosiy hollar" maqolasi T. Ma'naviyat 2003 yil 197-bet

³⁷ Guliston jurnali Ziyaeva D "1916yil qo'zg'aloni va Rossiya davlat dumasi 1996 y 6-son. 10-bet.

giriftor etilgan ayollar ahvolini bir tasovvur etib ko'ring. G'alayonlarni dastlab ana shu ayollar boshlagan.."³⁸

Turkistonda sodir bo'layotgan bunday siyosiy voqealar Rossiya jamoatchiligini ham hayajonga solgan bo'lsada biroq u rus jamoatchiligining juda tor doirasini tashkil etgan Duma a'zolarining ko'pchiligi uchun Turkistonning tub manfaatlari -uning erki taraqqiyoti mutlaqo begona edi.

Fitrat I jahon urushida Turkiya bilan Germaniyaga qarshi urishayotgan mamlakatlarning urush maydonlaridagi mag'lubiyatlari Rossiyaga naqadar salbiy ta'sir qilganligini siyosiy jihatdan atroflicha taxlil qiladi. U o'zining "Siyosiy hollar" nomli maqolasida Italiyaning mag'lubiyati Germaniyaning Boltiq bo'yidagi g'olibona yurishi Rossiyaning siyosiy ahvoriga og'ir ta'sir qilganini ko'rsatadi.

Jumladan, "Italiyaning bu qo'rqinch mag'lublig'i yolg'iz Italyonlar uchun emas, ruslar uchun daxi buyuk bir musibat bo'ldi. Chunki yong'inlarinda, badbaxtlik loyqalarinda botib qolg'an Italiyaning qo'lnidan ololmag'an muttafiqlar qo'shunidan Rusiya uchun ko'mak ko'zlayikning ma'nosiz bir edugini yangidan bir isbot qilib berdi. Buning natijasida Rusiyada yangi bir balo bosh ko'tardi, bolshevik balosi."³⁹

Fitrat bu yerda Rus hukumati juda nochor holatga tushib qolganligini va Turkiston uchun siyosiy jihatdan qulay fursat kelganligini e'tirof etadi. Bolsheviklar Rossiya imperiyasidagi mavjud tuzumni zo'ravonlik bilan ag'darib tashlaydi. Rossiya fuqorolar urushi girdobida qolgan edi.

Turkistonda mustaqil davlat barpo etish g'oyalarini boshqa ziyolilar qatori Fitrat ham ilgari surgan edi. U millatparvar va erksevar kuchlar qatorida Turkiston muxtoriyatini tuzish ishlariga o'z hissasini qo'shib bordi.

Bundan tashqari Fitrat Rossiyadagi 1917 yil sentabr, oktabr voqealari to'g'risida ham "Siyosiy xollar" nomli maqolasida siyosiy jihatdan Rossiyada yuz berayotgan voqealarni tahlil qilib uning oqibatlari to'g'risida asosli xulosalar

³⁸ Guliston jurnali Ziyaeva D "1916yil qo'zg'aloni va Rossiya davlat dumasi 10-bet.

³⁹ A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild "Siyosiy hollar" maqolasi T. Ma'naviyat 2003 yil 197-bet.

chiqaradi. Tajribali siyosatchi sifatida bolshevliklarni hokimiyatni olishi Rossiya uchun naqadar halokatli ekanligini tushunganini ko'ramiz.

Jumladan uning "Bolsheviklar ikkinchi yo`la qo'zg'aldilar, bu qo'zg'alishlar birinchisi kabi bo'lmadi. Bu da'fa buyuk ish qurdilar, Petrog'radni olib, Kerenskiyni Russiyaning sodiq bolalarini topib, to'plab keltirmak uchun maydonlarigacha ketarga majbur etdilar"⁴⁰ -degan fikrlaridan Rus davlatida muvaqqat hukumat o'z ishlarini harbiy muvafaqqiyatlar bilan tuzatib olish umidi bilan 1917 yil iyun oyi boshida qo'shinlarga hujmga o'tish haqida buyruq berilganligi va hujum mag'lubiyat bilan yakunlangandan so`ng Petrog'radning g'azablangan aholisi ommaviy namoyishga chiqish voqealarini tushunishimiz mumkin. Shuningdek bu namoyishga 500 mingdan ortiq kishi qatnashadi va namoyishidagilar muvaqqat hukumatning iste'foga chiqishini talab qiladi va hokimiyatni sovetlar qo`liga berilishini talab qiladilar.

Ayni vaqtda rus davlatida ikkita katta siyosiy kuch hokimiyat uchun kurash boshlagan edi. Ularning birinchisi burjua partiyalari vakillaridan iborat muvaqqat hukumat bo'lib, u asosan o'rta va yirik burjuaziya manfaatlarini ifodachisi bo'lgan konstitutsiyaviy demokratlar (qadimchlar) partiyasi a'zolaridan tuzilgan edi. Ular parlamentar monarxiya tarafdori edilar, ikkinchisi esa ishchi va askar deputatlari propeletariat va dehqonlarning inqilobiy demokratik diktaturasiga tayanib, demokratik respublika o`rnatish uchun kurash olib borardilar.

Rossiya davlatida bo'layotgan bu ichki siyosiy nizolarni sergaklik bilan kuzatgan Fitrat Turkiston xalqlari qanday yo'l tutishi kerakligini aniq bayon qiladi.

"Biz Turkistoniylar uchun har holda Kerenskiychilar bilan bolsheviklar orasindag'i kurashni bitib ketmadigini ko'zda tutib o'z yo'llarimizni shunga ko'ra tayin etmak kerakdir"⁴¹ -degan fikrga keladi. Bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelishi bilan vaziyat tubdan o'zgaradi. Ular ilgari surgan komunistik mafkura

⁴⁰ A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild "Siyosiy hollar" maqolasi T. Ma'naviyat 2003 yil 197-bet.

⁴¹ A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild "Siyosiy hollar" maqolasi T. Ma'naviyat 2003 yil 198-bet

Turkiston xalqlari uchun mutloq yot tushuncha edi. Shuning uchun ham mahalliy aholi bu mafkurani avval boshdanoq o`ziga singdira olmadi. Bundan tashqari sovet hukumati o`rnatilgan dastlabki kundanoq unga mahalliy aholi jalb etilmadi yoki har xil bahonalar bilan davlat boshqaravida mahalliy aholi vakillarini kamaytirishga harakat qilingan.

Fitrat vatanparvar vatanning asl farzandi sifatida vaziyatni nazoratdan o`tkazib voqealar rivojini ko`rishga harakat qiladi. Bolsheveklar va vaqtli hukumat o`rtasidagi ixtilof Turkistonga qanday tasir qiladi va amalda qanday faoliyat yuritish kerakligi manzarasini chizishga harakat qiladi. "Telbalik qilib chopibg'ina bunlardan birini yoqlamoq foydali bo`lib chiqmas Rusiyada istibdod tarafdorlari chiqmaguncha musulmon kuchini sarflamak xatodir. Xuriyatki ikki partiya orasinda bo`laturg'on urushlarga qotishmoq bulardan birini yoqlab o`zgasidan yuz qaytarmoq ehtiyotsizlikdir"⁴² ushbu fikrlari bilan Fitrat Turkiston xalqlari uchun birdan bir to`g`ri yo`l qulay fursatni kutib o`z muxtoriyatlarini tuzish kerakligini va tinch yo`l bilan davlatni mustaqil qilish kerak -degan g`oyani olg'a suradi. Lekin bolsheveklarning hokimiyat tepasiga kelishi bilan vaziyat tubdan o`zgarib ketadi. Ayniqsa bu jarayon Turkiston xalqi boshiga ko`plab fojeali holatlarni olib keladi. Dastlabki kundanoq unga mahalliy aholi jalb qilinmadi. Bu bilan ularning milliy g`ururi va haq huquqlari inkor qilindi. Turkistonda o`rnatilgan Sovet tuzumi podsho Rossiyasi mustamlakachiligini yangi shakli ekanligi, dastlabki kunlardanoq oshkor bo`lib qolgan edi. Sovet hokimiyati mahalliy xalqning asrlar davomida shakllangan urf odatlari milliy qadriyatlarini toptagan oyoq osti qilgan edi. Shuning uchun ham millatparvar erksevar kuchlar 1917 yilda Turkiston muxtoriyatini tuzdi. Bu muxtoriyatni tuzilishi boshqa milliy ziyolilarimiz qatori millatparvar va mustaqillik kuychisi Abdurauf Fitratda ham yuksak umid uchqunlarini o`yg`otdi. U ushbu muxtoriyatni e`on qilinishi to`g`risida quyidagi fikrlarni keltirib o`tadi. "Inqilob bo`ldi Rusiyaning "qo`shma xalq jumhuriyati" usuli bilan idora etiluri jarlandi. Shul e`lon uzra yasalgan Ukraina, tatar va boshqa

⁴² A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild "Siyosiy hollar" maqolasi T. Ma`naviyat 2003 yil 198-bet.

millatlar muxtoriyatlari tasdiq etildi. Qunuq Turkistonniki edi Turkistonning tarixiy xonbaliqlaridan ikkinchisi bo'lgan Xo`qand shaxrinda to'plang'an Turkiston qurultoyi 27 no`yabrning "milliy laylatulqadrimiz" bo'lg'an yarim kechasinda Turkiston muxtoriyatini e'lon qildi."⁴³ Abdurauf Fitrat bu muxtoriyatga juda katta umid bog'lagan edi, lekin bu muxtoriyat uzoqqa bormadi. Sovet bolsheviklari tomonidan qonga botirildi. Uning o`rniga Turkistonda sovet avtonomiyasi (muxtoriyati) ni rasmiy tashkil etish masalasi 1918 yilning 20 apreldan 1 mayigacha Toshkentda bo`lib otgan o'lka sovetlarining V sezdida ko'rib chiqildi. Bolsheveklar fraksiyasi taklifi asosida sezd qabul qilgan "Turkiston sovet respublikasi to'g'risida qoidalar"da Rossiya Federativ Respublikasi tarkibiga kiruvchi Turkiston avtonom sovet sotsialistik respublikasi ekanligi e'lon qilindi. Turkiston avtonom Respublikasining hududiy chegaralari belgilandi. Uning oily qonun chiqaruvchi organi sifatida ishchi, askar, dehqon va musulmon dehqonlar sovetlari se`zdi, uning doimiy faoliyat yurituvchi organi qilib esa Markaziy Ijroiya qo`mita belgilandi.

Shunday qilib Turkiston avtonom sovet sotsialistik respublikasi tuzilib uning maqsad vazifalarini rasmiy hujjatlarda belgilangan bo'lsada biroq amalda u mahalliy xalqlarning haqiqiy ma'nfaatlariga emas asosan hukmron tuzum va uning o'lkadagi ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Abdurauf Fitrat bu jarayonni oldindan atroflicha o'rganib chiqib quyidagi fikrlarni bildirgan. "Lekin shunisi borkim, bir millatning muhtoriyati yolg'iz bir sezdning e'loni bilan tamom bo'lmas. Muxtoriyatni olmoq va saqlamoq kerakdir. Se`zd o`z ishini qildi. Qolg'anlari butun millatning vazifasidir. Muxtoriyatni saqlamoq uchun kuch zarur muxtoriyatni bajarmoq uchun aqcha kerakdir. Bularni millat hozir qilsin".⁴⁴ Mustamlakachilik siyosatining asosiy yo`nalishlaridan biri Turkiston o'lkasini ruslashtirishdan iborat bo'ldi. Podsho hukumati ko'p minglab

⁴³A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild "Muxtoriyat" maqolasi T. Ma'naviyat 2003 yil 199-bet

⁴⁴A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild "Muxtoriyat" maqolasi T. Ma'naviyat 2003 yil 199-bet

ersiz dehqonlarni ishsizlarni mustamlaka Turkistonga ko'chirib keltirishi bu maqsadga erishishda katta o'rin tutadi.

Rus davlati Turkistonni rus inqilobchilari va sotsial demokratlarini surgun qiladigan makonga aylantirdi. Markaziy Rossiya Kavkaz ortidan ketgan Rossiya Monarxiyasining minglab raqobatchilari Turkistonning yirik shaharlariga kelib o'rnamshdi.

Rossiyadan ko'chirib keltirilganlarga katta imtiyozlar berildi ularni joylashishi, dehqonchilik qilishi uchun ko'p miqdorda mablag'lar ajratildi, o'zini o'nglab olgunga qadar oziq ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab turildi.

Mustamlaka o'lkada ko'p sonli rus aholisining mavjudligi Rossiya uchun harbiy va siyosiy tayanch bo'ldi. Ular ayni bir vaqtda mahalliy xalqlarning mustamlakachilik tuzumiga qarshi bo'lgan harakatlarini bug'ib turishi uchun tayanch vazifasini bajarganlar. Bu haqda siyosatshunos olim Abdurauf Fitrat o'zining "Turkistonda Ruslar" nomli asarida "mahkamalarda, uylarda, yo'llarda, tijoriy ishlarda, vagon arbalarinda Turkiston erlisining huquqi Turkiston musofiri bo'lg'an rus va armanidan tubanda tutildi."⁴⁵ -degan so'zlarni keltiradi.

Darhaqiqat yangi tashkil topgan rus qishloqlari aholisi mahalliy aholiga nisbatan ancha ko'p maydon ekin maydonlariga ega bo'lgan. Ma'lum muddatlargacha soliqlardan ham ozod qilindi. Podsho ma'murlari mahalliy maktablardagi ta'lim - tarbiya ishlarini takomillashtirishni mahalliy aholini ruslashtirish borasidagi katta to'siq deb qaradilar Shu sababli eski maktablarda o'qish o'qitish ishlarini yaxshilash uchun biror bir tadbir ko'rilmadi. Maktablarning ahvoli Rossiya bosqinidan avval qanday bo'lgan bo'lsa, shundayligicha qolib ketaverdi.

Mahalliy xalqlarning tarixiy qadriyatlariga diniy e'tiqodlariga ta'sir o'tkazish, ularni ma'naviy qaramlikda ushlab uchun Rossiya ma'muriyati, tajribali mustamlakachi davlatlarning o'z mustamlakalarda olib borgan misseonerlik siyosatlaridan foydalandilar. Ostroumov va boshqa misseonerlarning o'lkadagi

⁴⁵A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild "Turkistonda ruslar" maqolasi T. Ma'naviyat 2003 yil 203-bet.

faoliyati buning yorqin misolidir Mahalliy aholining yashash tarzi, sihat-salomatligini yaxshilash borasida ham biron bir tadbir amalga oshirilmadi. Guberniyalarda, uezdlarda bir yoki ikki vrach bo'lib, ular ham asosan soldatlar va Rus aholisiga yordam ko'rsatish bilan band bo'lganlar.

O'lkada mustamlakachilikni kuchaytirishga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar asta sekin mahalliy aholining moddiy va ma'naviy qashshoqlanishiga, ijtimoiy iqtisodiy ziddiyatlarni keskinlashishiga olib kelib, rus mustamlakachiligiga qarshi qaratilgan milliy ozodlik harakatlarining kuchayishiga sabab bo'ldi.

Ma'rifatchilikning yangi to'lqinida "Samarqand", "Buxoroi sharif", "Turon", "El bayrog'i", "Kengash", "Hurriyat", "Ulug' Turkiston" singari gazetalar hamda "Oyina" jurnali kabi ommaviy axborot vositalari ham paydo bo'ldi.

Lekin tez orada rus ma'muriyati ashaddiy shoviniist N.P.Ostrumov bildirishnomasiga asoslanib bu ro'znomalarni man etdi.

Siyosatshunos olim Abdurauf Fitratning "bizning diniy va milliy hissiyotlarimizni uldurmak tilagi bilan Ustirumov kabi mutaassib po'plarning idorasida gazeta chiqarildi, maktab ochildi, va o'z millatimiz dunyomizni anglatmoq uchun o'z tarafimizdan ochilgan maktablar va gazetalar bog'lanadi shar'iy mahkamalarimizning huquq va salohiyatlaridan buyuk bir qismi g'asb etildi"⁴⁶ -degan fikrlari buning isbotidir

Rossiya fevral inqilobi arafasida bo'lgan paytda Turkiston jadidchiligi yetuk siyosiy harakatga aylanadi. Agar birinchi jahon urushidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo'lsalar, fevral inqilobidan keyin Turkiston jadidlarining "Taraqqiyparvarlar" oqimini tashkil qilgan radikal qismi ancha keng qamrovli bir qator siyosiy talablarni ilgari surdi. Ular qatoriga mahalliy aholi huquqlarini kengaytirish tomon o'lkani boshqarish yuzasidan asosli islohatlar o'tkazish o'lkaga davlat do'masidan aholi soniga qarab o'rin berish, asosiy demokratik erkinliklar, avvalo milliy matbuot erkinligini ta'minlash. Podsho

⁴⁶ A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild "Turkistonda ruslar" maqolasi T. Ma'naviyat 2003 yil 203-bet

hukumatini konstitutsion tuzum bilan almashtirish kabilar kiradi. Rossiyada yangi davlat tuzumi o'rnatilgandan so'ng fedirativ davlat shaklida muxtoriyat olishga umid bog'lagan jadidlarni ruhlantirib yubordi.

Ayni paytda milliy siyosiy partiyalar va tashkilotlar, jumladan jadidlar tomonidan "Ittifoqi musulimin", "Turon" kabi bir qator tashkilotlar tuzildi. Bu paytga kelganda jadidlar tub yerli aholi ijtimoiy tarkibining turli qatlamlarini o'z ortlaridan ergashtira oldilar ular ongida musulmonlar birligini mustahkamlash jiplashtirish hissini o'yg'otdilar. Ammo ular tez orada tushundilarki, Rossiyadagi muvaqqat hukumat va uning Turkiston qo'mitasi ham o'lkada avvalgidek mustamlakachilik siyosatini davom ettirish yo'lini tutmoqda edi. Chunonchi bu siyosat tasis majlisini chiqarishga tayyorgarlikda yaqqol namoyon bo'ldi. Shu vaqtdan jadidlar uchun mustaqillik va muxtoriyat yo hayot, yo mamot muommasiga aylandi va jadal siyosiy janglar boshlandi. Ular hukumatning mustamlakachilik siyosatini qattiq tanqid ostiga oldilar va Turkistonning Rossiya demokratik Federativ respublikasi tarkibida milliy hududiy muxtoriyat olish uchun astoydil harakat qildilar Biroq Turkistondagi oktabr voqealari va bolsheveklarning zo'ravonlik bilan hokimiyatni egallashi ularga o'z maqsadlarini oxirigacha amalga oshirishlarishga imkon bermadi.

Shunga qaramay ular Petrogradga tuzilgan Lenin boshchiligidagi bolsheviklar hokimiyatining "Rossiya xalqlari deklaratsiyasi", "Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga" murojatnoma hujjatlarda ko'rsatilgan millatlarning oz taqdirini o'zi belgilashi to'g'risidagi huquqlaridan foydalanib, Turkiston muxtoriyati hukumati e'lon qildilar. Uch oygina yashagan bu muxtor respublika tugatilishi oqibatida jadidlar ta'qibga uchradilar. Bu siyosiy jarayonlar haqida Abdurauf Fitrat Turkistonda raslar nomli maqolasida "Ellik yildan beri shuncha zulm orasinda qolgan Turkiston bu kun o'z muxtoriyatini shuncha adolat va sadoqat bilan e'lon qilibdir. Bilmadik nechundurkim, hozirda ish

boshinda adolatchi bolsheviklar shuni qabul qilmay turalar ...⁴⁷ -degan fikrlarni bildiradi.

Sovet davrida jadidlardan chiqqan ziyolilar sovet organlarida faoliyat ko'rsatdilar, va o'z faoliyatlari bilan xalq ta'limi sifatini rivojlantirishga ma'rifiy ishlarni taraqqiy ettirishga harakat qildilar. Jadidlarning ko'pchiligi mustabid tuzumning mustabid siyosatiga ko'nikmay xorijga jo'nab ketdilar, muayyan qismi esa istiqlolchilar harakatiga qo'shilib ketdilar. Istiqlolchilik harakatiga g'oyaviy rahnomalik qilish ayniqsa sovet organlarida ishlab milliy mustaqillik g'oyalarini targ'ib qilishidagi sa'yi harakatlari jadidlarning sovetlar tomonidan ommaviy qatog'on qilinishiga olib keldi. Buxoro amrligi va Xiva xonligida jadidchilik harakati Turkistondagi kabi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan bo'lsa ham bu hududlardagi tarixiy sharoit undagi jadidchilik harakatiga xam o'ziga xos xususiyat baxsh etdi. Buxoro va Xiva jadidlari dastlab amr va xon hukumronligini cheklash mavjud tuzum sharoitida islohatlar o'tkazib jamiyat taraqqiyoti va milliy mustaqillikni qo'lga kiritishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsalar, kiyeinchalik xon va amir yakka hukmronligi har qanday taraqqiyotga to'siq ekanligini tushunib yetdilar. Chunki Xivada Asfandiyorxon ruxsati bilan tuzilgan "yosh xivaliklar" dan iborat majlis va nozirlar kengashi, ularning taqiqlanishi va Junaidxon davridagi "yosh xivaliklar" ning qattiq taqib qilinishi, Buxoro amiri Said Olimxonning o'zi qabul qilgan islohatlar o'tkazishlar haqidagi farmonini bekor qilishi va "yosh buxoroliklar" ning quvg'inga uchrashi shunga olib kelgan.

Bu haqda siyosatshunos olim A. Fitrat o'zining "Buxoroda inqilob" nomli maqolasida "Aprelning ettisinda amirimiz bir bayonnoma chiqordilar. Aprel sakkizida Buxoro yoshlari boydoq chiqorib muborakbod qildilar. Mullalardan bir jamoa chiqib shul boydoq chiqorg'anlarni kofir deb o'ldirmoqchi bo'ldilar. Hukumat yoshlarining birini tutib etmish besh tayoq urdi"⁴⁸ -degan fikrlarni keltirib o'tadi. U yana so'zida davom etib "Aprel to'qquzida qo'shbegi odamlari

⁴⁷ A. Fitrat Tanlangan asarlar III-jild "Turkistonda ruslar" maqolasi T. Ma'naviyat 2003 yil 203-bet.

⁴⁸ A. Fitrat Tanlangan asarlar III-jild "Buxoroda inqilob" maqolasi T. Ma'naviyat 2003 yil 206-bet

yoshlarning uylarini bosdilar, tobg'anlarini ketirib "Obxona" -degan rutubatli bir mahbusda qamadilar va ikkitasini yana hukumat amri bilan etmiş besh tayoqdan urdilar. Yoshlar qochib Kogonga chiqdilar"⁴⁹ -deb bu davrda Buxoroda mavjud siyosiy vaziyatni ochib beradi.

Buxoro amrligi va Xiva xonligi rus davlati tomonidan yosh buxoroliklar va yosh xivaliklarning yordami bilan tugatildi va uning o'rniga Buxoro va Xorazm xalq respublikalari tashkil etilgach, jadidlar hukumat organlarida rahbar lavozimlarida ishlab mamlakatni taraqqiy qildirish va mustaqil qilishga intildilar. Biroq sovet rejimi avval Buxoro va Xorazm davlatlari mavjudligiga chek qo'ygan bo'lsa, keyinchalik barcha jadid namoyondalarini jismonan maxf qildi.

Umuman olganda boshqa jadidlar qatori A. Fitrat XIX asr oxiri va XX asr boshlari Turkiston xalqlarining millat ozodligi va mustaqilligi uchun avval podsho Rossiyasi so'ngra sovet mustamlakachiligiga qarshi kurashida o'zining o'tkir siyosiy fikrlari hamda faol harakatlari bilan muhim o'rin tutadi va bu jarayonni yetarlicha yoritdi.

Matbuotning qudratli mafkuraviy qurol ekanligini bilgan jadidlar fevral inqilobidan keyingi qulay tarixiy sharoitdan foydalanib, yangi gazeta va jurnallarini chop etishga alohida e'tibor berdilar. 1917 yil mart oyining o'zida tub yerli xalqlar tillarida birin ketin o'nlarcha vaqtli nashrlar paydo bo'ldi. Masalan, Toshkentda "Kengash", "Turon", "Turk eli", "Ulug" Turkiston", "Najot", "Xurshid", "Sadoi Turkiston", "Sho'royi Islom", Samarqandda "Oyna", "Hurriyat", Buxoroda "Turon", "Buxoroi Sharif", Qo'qonda "Sadoi Farg'ona", "Tirik so'z", "El bayrog'i", "Ravnaqul Islom", Namanganda "Farg'ona sahifasi", Farg'onada "Farg'ona Nidosi" gazetalari nashr etila boshladi.⁵⁰ Bu gazetalarga taniqli arboblardan Zaki Validiy, Munavvar Qori, Fitrat va boshqalar muharrirlik qilishdi. "Ko'pincha bu nashrlar o'zlarini adabiy-siyosiy, ijtimoiy-siyosiy nashrlar

⁴⁹ A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild "Buxoroda inqilob" maqolasi T. Ma'naviyat 2003 yil 206-bet

⁵⁰ O'zbekiston tarixi va madaniyati maruzalar to'plami – T. 1992 yil 158 bet.

deb atashardi. Ular saqhifalarida birinchi navbatda o`lka tub yerli aholisining manfaatlarini ifodalaydigan siyosiy masalalar aks etirildi.”⁵¹

Mazkur vaqtli nashrlar ichida “Xurriyat” gazetasi ijtimoiy-siyosiy masalalarni olg’a surib xalq ommosiga kuchli ta’sir etishi bilan alohida o`rin egallagan edi. “Hurriyat” gazetasi Samarqandda 1917-1918 yillari nashr etilgan. 1917 yilda 27-sonidan boshlab Fitrat muharirlik qilgan. Bu nashrda Fitratning 40ga yaqin maqolalari va to`rtta o`zbekcha, ikki forsiy she’ri e’lon qilingan bo`lib, ularning ko`pchiligining mazmunini XX asr boshlaridagi Turkistonning fojeali holatini ochib berish tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda XX asr boshlariga kelib og’ir va ayanchli holatga tushib qolgan Turkiston o`lkasida Rossiyadagi fevral voqealari tasirida birmuncha o`zgarishlar qilishga erishildi.

Bu o`zgarishlarda birinchi navbatda oq va qorani tanigan milliy ziyolilarimizning hissalarini beqiyos bo`ldi. O`lka xayotining pastu-baladini teran bilgan mustamlakachilarning riyokorlik siyosatidan, uning tez o`zgaruvchan mohiyatidan bohabar va o`z kurash dasturlariga ega bo`lgan Turkiston jadidlari mahalliy aholining siyosiy ongini o`stirish, uni katta tarixiy o`zgarishlarga tayyorlashda bosh-qosh bo`ldilar. Ayniqsa Rossiya muvaqqat hukumatining ikki yuzlamachilik siyosati, uning inqilobning tub masalalarini, chunonchi, 8 soatlik ish kuni, agrar va milliy masalalarni hal etishni turli bahonalar bilan chetga surish ilg’or jadid arboblarini inqilobiy demokratik yo’nalishda izchillik bilan kurash olib borishga da’vat etdi.

⁵¹ O`zbekistonning yangi tarixi, O`zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida.T. “Sharq”2000 yil 151-bet.

2.2. Turkiston ozodligi uchun nima qilmoq kerak?

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari: Turkistonni o'rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, "usuli qadim" inkor etgan holda o'lkani, xalqni, millatni zamonaviy mutaraqiy yo'lga olib chiqish, Milliy davlat bunyod etish konstitutsion parlament, va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy pul birligini joriy qilish va milliy qo'shin tuzishdan iborat edi.

Turkiston jadidchiligidagi asosiy g'oyaviy nazariy yo'nalish Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Cho'lponlar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, sho'rolar tuzumi, bol'sheviklar g'oya va mafkurasini to'laligicha inkor etib, yagona va bir butun Turkiston xalqi va davlatini qurish, zamonaviy taraqqiyot yo'lidan borishni taklif etganlar.

Rossiyada fevral inqilobining amalga oshishi, siyosiy tuzumning o'zgarishi, demokratik jarayonlarning yuzaga kelishi uchun qulay imkoniyatlarning ochilishi Turkistondagi ijtimoiy siyosiy voqealarning borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ijtimoiy-siyosiy hayot faollashuvining muhim ko'rsatkichi sifatida nashriyat, xususan matbuot faaoliyatining keskin jonlanganini ko'rish mumkin.

Birinchi jahon urushi jadidlar tafakkurida qat'iy o'zgarishlar yasadi; ular muhitida rasmiy mafkuraning asosiy qoidalari, siyosiy hayotning mexanizmini tanqid qilish kuchaydi. Ayni paytda rivojlangan Evropa mamlakatlarida yuzaga kelgan demokratik siyosiy-huquqiy institut va tartiblarga qiziqish kuchaydi. Jadidlarning bir guruhi uni qoralab, boshqalari uni tugashini kuta boshladi. "Turkistonlik jadidlarning muayyan guruhi Turkiyaga ko'pchiligi esa Rossiyaga xayrixoh bo'ldilar."⁵²

Turkiston o'lkasida mavjud bo'lgan Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro amirligi hamda Xiva xonliklarida XX asr boshlariga kelib mustaqillik

⁵²A'zamxo'jaev S. Turkiston muxtoriyati T. Ma'naviyat 2000 y 23-bet.

uchun harakatlar aloxida-aloxida ko'rinishga ega bo'lsada, milliy ziyolilarimizning ilg'or vakillari yaxlit bir Turkiston o'lkasini tashkil etish va uni taraqqiy ettirish g'oyalarini ilgari surgan.

Istibdodga tushib qolgan xalqlarning milliy ozodlik kurashi mafkurasi va taktikasini o'rganish milliy demokratlarning diqqat-e'tiborida turdi. Jadidlar bu ishga ijodiy yondoshdilar. "Ular Yevropa mamlakatlarining davlat qurilishi va qonunchiligi, Rossiya va Sharq xalqlarining mustamlakachilikka qarshi kurashi va demokratik harakatlari mafkurasi hamda taktikasining keng amaliy jihatlarini o'rganib, undan o'z mamlakatlariga mosini, to'g'ri keladiganini tanlab olishdi."⁵³

XX asr boshlariga kelib O'rta Osiyoning Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligi davlatlarida faoliyat yuritayotgan milliy ziyolilar bir qancha guruhlarga bo'linib bu davlatlarni mustaqillik yo'llariga olib chiqishga harakat qildilar. Ular o'z sa'yi harakatlari bilan vatanparvar sifatida o'z xalqiga namuna bo'lishga harakat qilib, yaratgan asarlari yordamida xalqni ma'rifatli, madaniyatli, vatanparvar bo'lishga chaqirganlar.

Abdurauf Fitrat fidoiy, vatanparvar olim sifatida dunyo tarixini tahlil qilgan holda XX asr boshlarida rus mustamlakachilari zulmi ostida qolgan Turkistonning fojiali ahvoli to'g'risida shunday deydi: "Aniqdirki, hech qaysi millat hech bir zamonda bizda bo'lganidek yurti xaroblik, xalqi falokat, ayonlari pastkashlik, idora ahli fasod, zolimlarning qon so'rishi, ajnabiylar kalakalari, istiqbolining mushkulligi kabi illatlarga muhtalo bo'lmagan!"⁵⁴ Bu fikrlari bilan A. Fitrat boshqa Sharq mamlakatlarining qaramlik ahvolini tahlil qilgan holda, ulardan ko'ra Turkiston o'lkasini ahvoli naqadar og'irligini chuqur qayg'u bilan yozadi. Fitrat Turon xalqi boshiga tushgan og'ir musibatning bosh sababi sifatida shu zamin farzandlarining harakatsizligi va jur'atsizligini ko'rsatadi. U o'zining "Yurt qayg'usi" nomli she'rida sobiq qiron Amir Temur ruhiga murojaat qilib "Sening Turoningni o'zim talatdim, Sening turkligingni o'zim ezdirdim, Sening

⁵³ A'zamxo'jaev S. Turkiston muxtoriyati T. Ma'naviyat 2000 y 23-bet.

⁵⁴ A. Fitrat Tanlangan asarlar III-jild Buxoro vaziri Nasrullohbey parvonachi afandi hazratlariga ochiq maktub. T. "Ma'naviyat" 2003 yil 226-bet.

omonatlaringga xiyonat o'zimg qildim. Men uch kunlik umrimni tinchgina yozib o'tkazmoqchi bo'lmasa edim shularning birortasi bo'lmas edi."⁵⁵--degan achchiq fikrlarni keltiradi. Yurt ozodligi yo'lidagi harakatlariga madad berishini so'raydi. "Ey arslonlar arsloni, Mening yozuqlarimdan o't, Meni qo'limni tut, Belimni bog'la, muqaddas fotihangni ber! Sening dunyoga sig'magan g'ayratingga ont ichamanki, Turonning eski sharaf va ulug'lig'ini qaytarmasdan burun ayog'laringda o'tirmasman."⁵⁶ Fitratning usbu so'zlari Turkiston ozodligi masalasini o'z umrining mazmuni deb bilganligini isbotlab turibdi.

Olim siyosiy-ijtimoiy nohaq idora usuli va chet elliklarning yurtimizga past nazar bilan qarashini bir jumlada asosli qilib tushuntirib beradi. Buxoroning ilg'or vatanparvar ziyoli kishilari mamlakatni og'ir tushkunlikdan qutqarish, mavjud ahvolni hech bo'lmasa yengillashda amir hukumatining millatni dardini tushunadigan oliy amaldorlaridan biri vazir Nasrullohbey parvonachidan umidvor bo'ladilar. Fitrat bu amaldorga ochiq makutub bilan murojaat qiladi va Buxoroning barcha ilg'or kishilarini vatanni qutqarish uchun dadil harakat qilishini yolvorib so'raydi: "Ra'iyat orasida sizga nisbatan ixlos va muhabbat bor, bu yaratganning karamidirki, sizni favqulodda nufus soxibi qilib boshimizga yubordi. Oliy hazrat tojdor padari buzrukvorimiz, adolatparvar podshohimiz bizni tarbiyat va tanzim etmak amrini sizga bergan. Ne to'siqki, sizni bu muqaddas xizmatdan qaytarsin. Magar boshqalar g'aflatda qolgan bo'lsalar, Siz-da g'aflat qilmang. Boshqalar g'aflatining tashvishi Sizning g'aflatingizchalik bo'lmaydi".⁵⁷ Abdurauf Fitrat ushbu fikrlari bilan amirlikning qoloq idora usuli xalqni kulfatini yengillashtirmasligini tushunar hamda hech bo'lmaganda o'tkir fikrli amaldorlarni xalq manfaati yo'lida jadal faoliyat ko'rsatishga undaydi.

⁵⁵ A.Fitrat Tanlangan asarlar I-jild Yurt qayg'usi she'ri T. "Ma'naviyat" 2000 yil 34-bet.

⁵⁶ A.Fitrat Tanlangan asarlar I-jild Yurt qayg'usi she'ri T. "Ma'naviyat" 2000 yil 35-bet.

⁵⁷ A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild Buxoro vaziri Nasrullohbey parvonachi afandi hazratlariga ochiq maktub. T."Ma'naviyat" 2003 yil 227-bet.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida xalqaro siyosiy vaziyatni, Turkistonning og'ir ahvolini yetarlicha o'rganib uni har tomonlama tahlil qilgan A. Fitrat o'zi va xalq oldiga "Turkiston ozodligi uchun nima qilmoq kerak?" -degan savolni qo'yadi. U bu savolga javob topishga urindi. Sharqning Hindiston, Arabiston, Turkiya, Eron, Afg'oniston singari davlatlariga qilgan sayohatlari davomida bu mamlakatlarni ahvoli bilan tanishdi. Ularga nisbatan G'arb mamlakatlarini siyosatini ko'rib Turkiston bilan qiyosladi. Bu mamlakatlarni iqtisodiy-siyosiy muammolarini diqqat bilan kuzatdi. Bu mamlakatlarni nima uchun mustamlaka zulmi ostiga tushish sabablarini qidirdi. Sharqning qoloqlik oqibatida mustamlaka mamlakatlariga aylangan davlatlari siyosiy holatini quyidagicha izohlaydi:

"Biz Sharqlilar, dahi tinchlik va rohat so'nginda buzilib qoldiq, yo'ldan ozdik ezgu tilaklarimizni unuta boshladik. Bilim va hunardan yuz qaytardik, birlik va axloqdan ayrildik, oxchag'a berildik, oxchag'a sotuldik, shuning so'nggida Xitoy, Turk, Fors, Arab va Hind mamlakatlarindan har biri o'z qo'nig'i bilan o'z navbati bilan tinchlik va taraqqiy bosqichlarindan qulluq, yo'qsilliq chuqurlarig'a yumalab tusha boshladilar. Sharqning butun ishlari ongsiz beklar, tushunchasiz xonlar, miyasiz mo'llalar, bilimsiz eshonlarning qo'liga o'tdi. Bunlar Sharqning butun tuzuk va intizomini buzib yubordilar. Xonlar o'z qorinlarini to'ydirmoq uchun xalqni bir-biri bilan urishtirdilar, mamlakatni jonli va muhim o'rinlarini sotdilar, mo'llalar o'z istavlarig'a din otini toqib bozorg'a chiqardilar, din, tangri, payg'ambar, uchmox va tamug' orqali Sharq xalqini talay boshladilar. Sharqning taraqqiy yo'li ko'mildi."⁵⁸ Sharq dunyosining G'arb zulmi ostiga tushib qolishini birinchi sababi sifatida ilm-fan va kasb hunarni rivojlantirilmaganligini ko'rsatadi. Ikkinchi bir sabab qilib jamiyat ijtimoiy qatlam va guruhleri o'rtasida birdamlikni yo'qligini, jamiyatni ma'naviy buzuqlik aynishlar hamda, vatan manfaatlariga xiyonat qilish, sotqinlik ekanligini ko'rsatadi: ayniqsa diniy mutassiblik, aqidaparastlik Sharq dunyosini tanazzulga olib kelganini aytadi. Diniy tashkilotlarning ularning xizmatchilarini o'z g'arazli manfaatlarini yo'lida xalqni

⁵⁸ A. Fitrat Tanlangan asarlar III-jild Siyosiy xollar maqolasi T. "Ma'naviyat" 2003 yil 215-bet.

bilimsizlikka duchor qilganlarini fosh qiladi. Bundan tashqari mamlakat hukumdorlari mol-dunyo to'plash yo'lida xalqlarni o'rtasida nizo chiqarib boylik toplamoqchi bo'lganliklarini ochib tashlaydi. Abdurauf Fitrat bunday sabablar natijasida Sharq dunyosini kelajak taraqqiyoti yo'qligi xulosasiga keladi. Olim metrapoliyalardagi siyosiy-iqtisodiy jarayonlarni ijobiy-salbiy oqibatlari mustamlakalarga ham ta'sir qilganligini asoslab berdi.

Bu fikrlari bilan olim Sharq dunyosini tushkunligi sabablarini aniq asosli ko'rsatadi. Tarixiy taraqqiyotning qonuniyatlarini xolisona va asosli bilishini isbotlaydi.

Ayniqsa u boshqa davlatlarda bo'layotgan siyosiy hodisalarni ziyraklik bilan kuzatdi. Bu davrda jahon jamoatchiligining ko'pchilik xalqlari turli xil siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy bo'hronlar girdobida qolgan bo'lib uning ayrim jihatlari Turkistonga ham o'z ta'sirini o'tkazayotgan edi. Masalan; Turkistonning siyosiy hayotiga markaziy Rossiyani qamrab olgan siyosiy jarayonlar katta ta'sir o'tkazdi. Shu bilan birga bu yerda o'ziga xosliklar ham namoyon bo'ldi. O'lkada ijtimoiy g'oyalar va milliy g'oyalar, mustamlaka tobeligini tugatish muammosi g'oyalari bilan qorishib ketdi. Bu haqda tarixchi olim A'zamxo'jayev S. "Turkiston muxtoriyati" nomli asarida "Turkistonda o'ziga xos ikki markaz yuzaga keldi. Ular, bir qaraganda, o'zaro bog'liq bo'lsa ham ayni paytda yetarli darajada alohidalikka ham ega edi. Birinchi markaz – yevropalashgan jamoa bo'lsa, ikkinchisi – mahalliy aholini qamrab olgan edi"⁵⁹ -degan fikrlarni bildiradi. U yana so'zida davom etib bu ikki jamoani "Yevropalashgan jamoa siyosiy manfaatlarining o'ziga xosligi shundaki, u imperiyacha da'volar ustunligiga tayanardi. Mahalliy aholi esa mustaqil milliy rivojlanish huquqini ta'minlashga intildi. Fevraldan keyingi davrda mahalliy Turkistonliklarning faolligi tez o'sdi. Ularning ijtimoiy hayotga ta'siri kuchaydi"⁶⁰ -degan fikrlarni keltiradi.

⁵⁹ A'zamxo'jayev S. Turkiston muxtoriyati T. Ma'naviyat 2000 y 56-bet

⁶⁰ O'sha asar 57-bet.

Umuman olganda mana shu ikkinchi jamoa harakati birinchi navbatda jadidchilik yo'nalishidagi siyosiy tashkilotlar musulmon aholining erkparvarlik orzu umidlari ifodachisi sifatida maydonga chiqdi. Ular xalqni ma'naviy va ma'rifiy qurollantirishga alohida e'tibor berdilar. Yangi ochilgan jadidchilik maktablari va jadidchilik namoyandalari tomonidan yaratilgan asarlarning aksariyati Turkiston ozodligi masalasiga qaratilgan edi.

Abdurauf Fitrat o'zining "Hind sayyohi bayonoti" nomli asarida Buxoro aholisini uch toifaga bo'ladi. Ularni ulamolar, umarolar va fuqarolar deb nomlaydi. Shu o'rinda ulamo va umarolar to'g'risida fikr bildirar ekan "Turkistonliklarning ko'pchiligi ayni shunda tahsil ko'rganlari bois Buxorolilarga ergashib ular ham jaholat va g'aflat botqog'iga botmishlar. Alal oqibat madaniyat osmonining porloq yulduzi insoniyat kitobining nurli sahifasi bo'lmish Turkistonni do'stu dushman oldida eshutish va gapurish bobida uyatliq bir holg'a yetkazmishlar, halokatga muhtalo etmishlar"⁶¹ – -degan fikrlarni keltirib o'tadi. Haqiqatdan ham bu davrda Buxoro ulamolari ko'pchiligi ruhoniylardan tashkil topgan bo'lib ularning aksariyati zamonaviy ilmlardan xabarsiz kishilar edi.

Fitrat yana so'zida davom etib, "ushbu" azizlar, maktab ko'rmaganlar hokimlik qonuniyatlarini eshitmaganlar ma'muriy idoraning axloq qoidalarin bilmamishlar. Millat qanday yuksaladi, mamlakat qaysi yo'l bilan boyiydi, davlatning xazinasini qanday yo'l bilan to'ldirish mumkin" kabi masalalar alarning xayollarig'a ham kelmamish"⁶² – -degan fikrlarni keltiradi.

Umuman olganda Buxorodagi ulamo va umaro toifasidagi kishilarning ko'pchiligi johil amaldorlar va mutaassib ruhoniylardan tashkil topgan edi. Uchinchi toifa esa fuqaro deb nomlanib Fitratning fikricha "Bu bechoralarda ayb yo'q, ular har ishga qodirdirlar. Biroq ayblari shundaki, buni o'zlari ham bilmaydilar".⁶³

⁶¹ A.Fitrat Tanlangan asarlar I-jild Hind sayyohi bayonoti T. "Ma'naviyat" 2000 yil 110-bet.

⁶² O'sha asar 99-bet.

⁶³ O'sha asar 100-bet.

Abdurauf Fitrat dunyodagi o'zgarishlarni kuzatib borar ekan, ularning ta'siri Turkiston xalqiga ham yetib kelishini oldindan anglab yetgan. U o'zining ko'plab asarlarida xalq ongiga ta'sir etuvchi voqealar va birdamlik, ahloqlilik, bilimlilikka intilish singari chaqiriqlarni ko'p ishlatadi. Shuningdek, diniy xurofotlarni keskin tanqid qilishga, hatto, dinni maktab maorifni va Turkistondagi idora usulini isloh etish g'oyasi singari g'oyalarni ilgari suradi. U o'zining Hindistonda bir farangi ila Buxoroli mudarrisning bir necha masalalar hamda usuli jadida xususida qilgan munozarasi nomli kitobini bosishga amir ruxsat bermagach, Istambulda bosib chiqarishga majbur bo'ladi. Asar forscha yozilgan, Hoji Muin o'zbekchaga aylantirdi va "Turkiston viloyatining gazetisi"da bostirdi. XX asrning birinchi o'n yilliklarida esa alohida kitob holida chiqdi, unga Mahmudxo'ja Behbudiy kirish so'zi yozdi. "Xibiz qilish, o'ldirish sangsor qilish kundagi odatlardan edi, - deb yozadi Fitrat – u zamonlarda kitob yozishning o'zi kofirlik edi. Men shu vaqtlarda birinchi asarni yozdim. Buxoroning idora usulini, ta'lim-tarbiya usulini, bir kuy rasmiy idoralarni tanqid qildim. Bu kitob Buxoroda tarqalar edi. Uning noshirlari bo'lg'on Buxoro jadidlarini tahlikaga solmaslik uchun amirga qaratib bir so'zboshi yozdim va shuning bilan go'yo tanqidning unga emas, ma'murlarig'a oid bo'lganini ko'rsatdim". Kitob Buxoroda ijtimoiy ongning jonlanishiga katta turtki bo'ldi, hatto ko'plab hukumat tomonidan ta'qib qilinayotgan jadid maktablarining ko'plab ochilishiga, maktab ta'lim ishlarining jonlanishiga sabab bo'ldi. Undagi "Islom mamlakatlari nega vayronazor va xarobazor qolishi kerak? Buning sababi nimada?" Bu bechoralarning nega yeyishga noni yo'q? kabi jiddiy savol va mulohazalar xalq ongiga ta'sir etmasdan iloji yo'q edi.

U Istambuldan qaytgach, siyosiy faoliyat bilan jiddiy shug'ullana boshladi. Fitrat jadid maktablarini ochish va bolalarni yangicha tartibda o'qitish ishlari bilan astaoydil shug'ullandi. U kishilarning ongini o'zgartirmay turib, mamlakatni o'zgartirish, uni ozod qilish va taraqqiy ettirish mumkin emas -degan fikrda edi.

Buning uchun millatning katta qismini ma'rifatli, dunyoviy ilmdan, texnikadan xabardor qilishda boshqa yo'l yo'q edi. Jadid maktablarida zamonaviy

fan-texnikani egallashga xizmat qiladigan saboqlar berilishiga erishish, jadidlar oldidagi eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Fitrat o'zining "Buxoroning holi" nomli asarida 1917 yilda Rossiyada yuz bergan siyosiy jarayonlarni diqqat bilan kuzatgan holda Buxoroda qulay vaziyatdan foydalanib tub burilishlarni amalga oshirish zaruriyatini xis qiladi. U shunday ta'kidlaydi: "Endi Buxoro yoshlari uchun lozimdirkim "bayonnoma – hamma bunga ko'mak etmak" shiorini miyalaridan chiqarg'aylar. Buxoro inqilobini istar esalar, inqilobchilarg'a yarashur harakatlar qilg'aylar. Yaxshi so'zlar bilan tavozelar bilan, yolborishlar bilan Buxoro hukumatini yo'lga keturmak bo'lmas. Zolimning "... tabiatiga o'xshash bir tabiati bordir: Qochg'anga quvar, quvg'anga qochar. Zolimlarning shu tabiatlarini, shu "ahvoli ruhiya" larini ko'zda tutmayin harakat qilaturg'onlar(ning) xato yo'ldadirlar, zarar ko'rarlar. Qo'rqmayin, tortinmayin keskinroq harakat qilmoq kerak: Bu kun Rusiya xarobalaridan chiqg'on Qafqos, Turkman, Totor, Turkistonning muxtor hukumatlari Buxoro yoshlig'iga har jihatdan ko'mak qilurlar"⁶⁴.

Buxoroda faoliyat ko'rsatayotgan yosh vatanparvarlarni endilikda qat'iy turib mustabid hukumatga qarshi keskin choralar ko'rishni yoki boshqacha aytganda uni hokimiyatdan chetlatishga chaqiradi.

Abdurauf Fitrat yaratgan ko'pchilik asarlari mazmunini millatni qoloqlik, qullik va nodonlik kabi har xil illatlardan qutulish yo'llari tashkil etadi.

U ayniqsa, o'zining „Siyosiy hollar“ nomli maqolasida Rossiya davlatida bo'layotgan siyosiy voqealarga alohida e'tibor qaratib, Turkiston xalqlari ozodlik kurashida bunday qulay vaziyatdan foydalanish kerakligini ta'kidlaydi. U o'z fikr va mulohazalarini "Rusiyada yangi bir balo bosh ko'tardi, bolshevik balosi! Bolsheviklar ikkinchi yo'la qo'zg'aldilar. Bu qo'zg'alishlari birinchisi kabi bo'lmadi. Bu daf'a buyuk ish qurdilar. Petrogradni olib Kerenskiyni Russiyaning sodiq bolalarini axtarib, to'plab kelturmak uchun maydonlarig'acha ketarga majbur etdilar. So'ng xabarlariga ko'ra, Kerenskiy tevarakdan to'plab keturdigi qo'shin

⁶⁴ A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild Buxoroning xoli maqolasi T. "Ma'naviyat" 2003 yil 200-bet.

bilan bolsheviklarni yengmish va Petrogradni unlarning qo'lidan yangidan olmishdir"⁶⁵. Bu yerda Abdurauf Fitrat rus davlatidagi muvaqqat hukumat va bolsheviklar o'rtasidagi tortishuvlardan foydalanib Turkistonni mustaqil qilish yo'llarini qidiradi.

Abdurauf Fitrat "Turkistonda ruslar" nomli maqolasida rus mustamlakachiligini fosh qiladi. Mustamlakachilarni Turkiston xalqlarini ilg'or Yevropa siyosiy madaniy yutuqlari bilan tanishuviga to'sqinlik qilganini ochib beradi. "Yurtimiz 50 yillik bir idorai askariya ostida turdig'i uchun biz Ovro'paning madaniy millatlari bilan ko'risholmadiq. Bizning ko'zlarimizni ochturmaslik uchun fikri ochiq totor qarindoshlarimizning Turkistonda maktab ochmoqlari man etiladi".⁶⁶

Shuningdek, u o'z so'zida davom etib mustamlakachilarning xalqni zulmda tutib turganliklarini ularning haq-huquqlari poymol etilayotganligini "Maqkamalarda, uylarda, yo'llarda, tijoriy ishlarda, hatto vagon arobalarinda Turkiston yerlisining huquqi Turkiston musofiri bo'lgan rus va armanidan tubanda tutiladi".⁶⁷ – -degan achchiq fikrlari bilan isbotlaydi.

Abdurauf Fitrat amir hukumati, rus hukumatiga og'ir ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan chiqish uchun chuqur ijtimoiy-siyosiy o'tkazish zaruriyat ekanligini uqtirishga harakat qildi, lekin rus hukumati islohotlar o'tkazish amirlik hokimiyatini vakolati deb bahona qildi. Amir esa amirlikdagi aqidaparast, dunyoqarashi ongi juda past bo'lgan tekinxo'r uzoqni ko'ra olmaydigan feodal ruhoniylarni oliy tabaqalarini qarshiligini sindira olmadi hamda, islohotlar o'tkazish emas balki biror bir sezilarli o'zgarishlar qilishga jur'at qilmadi. Aksincha ularni jadid taraqqiyparvar kuchlarni tegirmoniga suv quydi va xalq ommasini har qanday chiqishlarini keskin bostirishga urindi.

⁶⁵Fitrat Tanlangan asarlar III-jild Siyosiy hollar maqolasi T. "Ma'naviyat" 2003 yil 197-bet

⁶⁶ .Fitrat Tanlangan asarlar III-jild Buxoroning holi maqolasi T. "Ma'naviyat" 2003 yil 202-bet.

⁶⁷ O'sha asar 202-bet.

Rossiyada bo'lib o'tgan XX asr boshlaridagi fevral voqealaridan so'ng Turkiston o'lkasi ijtimoiy siyosiy hayotida ham katta o'zgarishlar bo'la boshladi.

Jumladan Turkiston general-gubernatorligi tugatilib uning o'rniga Turkiston qo'mitasining tashkil etilishi va inqilob tomonidan e'lon qilingan Ozodlik, Tenglik, Birodarlik shiorlari mamlakatda mavjud ijtimoiy siyosiy kuchlarni jonlantirib yubordi.

Ta'kidlash joizki XX asr boshlarida Evropa mustamlakachiligi Osiyo, jumladan Rossiya imperiyasi mustamlaka xalqlarining milliy o'zligini anglay borib siyosiy mustaqillik va davlat suvirentetini qo'lga kiritishga intilishlarini tan olishga majbur bo'ldi. 1917 yilning 26 noyabrda Qo'qonda o'lka musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi chaqirildi. Ushbu qurultoy uch kun davom etib uning yakuni sifatida Turkiston Muxtoriyati e'lon qilindi. Turkiston Muxtoriyatini qabul qilish haqidagi qarorda shunday deyiladi: "Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash xususidagi irodasini nomoyon etib, Turkistonni Fedirativ Rossiya respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qiladi, shu bilan birga muxtoriyatni qaror topish shakllarini Ta'sis majlisiga havola etadi."⁶⁸

Turkiston mehnatkashlari o'z milliy hukumati tuzilishini qanchalik qo'llab quvvatlab, unga ishonch va umidlari ortib bormasin, biroq o'lkada o'rnashib olgan va asosiy boshqaruv jilovini qo'lida ushlab turgan Turkiston sovet hukumati va uning joylardagi hokimiyat mahkamalari voqealarning bu tarzda rivojlanishiga izn bermay, muxtoriyat va uning tarafdorlarini yo'q qilish yo'lini butun choralar bilan o'tkazib bordi.

1917 yilning 27 dekabrda Petrogradga, xalq komissarlari Soveti Raisiga telegramma yo'lladi. Unda Turkiston Muxtoriyatini e'tirof etish, uning to'laqonli faoliyat ko'rsatishiga izn so'ralgan edi. Ming afsuski butun-bir o'lka xalqlarining xoxish-irodasi, orzu maqsadlarini ifodalab, nufuzli xalq qurultoyi tomonidan

⁶⁸ Usmonov Q, Sodiqov M. O'zbekiston tarixi T. "Sharq" 2007 yil 22-bet.

bol'sheviklar va sovetlar yo'l boshchisi nomiga yo'llangan bu telegramma talablari qondirilmadi.

Bu haqda Fitrat "Turkistonda ruslar" nomli maqolasida "Ellik yildan beri shuncha zulm orasinda qolg'an Turkiston bu kun o'z muxtoriyatini shuncha adolat va sadoqat bilan e'lon qilibdir. Bilmadik nechundurkim, hozirda ish boshinda adolatchi bolsheviklar muni qabul qilmay turalar...!"⁶⁹ —degan fikrlarni havotirlanib keltiradi.

Turkiston Muxtoriyati bir-qancha ob'ektiv va sub'ektiv sabablar natijasida o'zini o'zi etarli darajada himoya qilish imkoniga ega bo'lmadi. Buning boisi avvalo uning tarixan g'oyatda qisqa umr ko'rgani (72 kun yashadi), shu sababdan ko'p narsalarni bajara olmaganligi bo'ldi. Qolaversa Muxtoriyatchilar orasida ko'pgina muhim hayotiy masalalarda, birlk, hamjihatlik, jipslik mavjud emasdi. Shuning uchun ham bu muxtoriyat mag'lubiyatga uchrab halokatga yuz tutdi. Uning o'rniga esa Turkiston avtanom sovet sotsialistik respublikasi tuzilganligi e'lon qilindi.

Rossiyada podsholik tuzumining ag'darilishi va hokimiyatning boshqa siyosiy kuchlar qo'liga o'tishi Buxoro amirligiga ham o'z tasirini o'tkazmasdan qolmadi. Negaki, podsho Rossiyasining yarim mustamlakasi hisoblanib kelgan Buxoroda bu davrga kelib ichki ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ziddiyatlar jiddiy tus olib borayotgandi. Buning boisi amirlikning moliyaviy iqtisodiy hayoti va savdo sotiq aloqalari ko'pdan buyon Rossiya iqtisodiyotiga bo'ysundirib kelinganligida edi. Rossiyadagi har-bir o'zgarish, iqtisodiy yoxud siyosiy larzalar amirlik hayot maromiga chuqur daxl qilmasdan qolmasdi. Buning ustiga mamlakat ichki hayotida hokimi mutlaq cheklanmagan vakolatlar sohibi bo'lgan amir va uning ko'psonli ayonlari, amaldorlari mehnatkash ommaga hukm o'tkazib, zulm sitamni kuchaytirib kelardi.

Buxoro jadidlari XX asr boshlarida Rossiyada yuz bergan inqilobiy voqealardan foydalanib keng xalq manfaatlari foydasiga muhim siyosiy

⁶⁹ Fitrat Tanlangan asarlar III-jild Turkistonda ruslar maqolasi T. "Ma'naviyat" 2003 yil 203-bet

o'zgarishlarni ruyobga chiqarishga harakat etdilar. Ayniqsa bunda amirga tazyiq o'tkazib, uni xalqqa ko'p masalalarda yon bosishga siyosiy tuzumni o'zgartirishga, xususan, konstitutsion monarxiya joriy etishga urg'u berildi. Bu harakatlarning barchasi Turkiston davlati bo'lmish Buxoro amirligini Sovet Rossiyasi ta'siridan qutqarib mustaqil sifatida saqlab qolish uchun qilinayotgan edi.

Biroq ming afsuski amirlikni mustaqil davlat sifatida saqlab qolishning iloji bo'lmadi. Buning asosiy sababi jadidchilik vakillari va amir o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar, shuningdek mustaqillik uchun Turkistonning uch davlatida olib borilayotgan harakatlarning birlashmaganligi edi.

Xiva xonligida tashkil topgan "Yosh xivaliklar tashkiloti" ning jonlanishiga ham Rossiyadagi fevral voqealari chuqur ta'sir qildi. Bu tashkilot o'zining dastlabki qadamlaridanoq xonlikdagi mustabid tuzumni chuqur isloh qilish, xalqning ahvolini yaxshilash, uning tub manfaat maqsadlarini ruyobga chiqarish shuningdek Xiva xonligini Sovet rossiyasi ta'siridan saqlab qolish uchun kurash olib bordi.

Xiva xoni Isfandiyorxon "Yosh xivaliklar" tomonidan yuborilgan manifestni imzolashga majbur bo'ldi. Manifest talablariga ko'ra xonlikda konstitutsion monarxiya tuzumi o'rnatildi. Ayni paytda tarkibi 30-50 kishidan iborat ruhoniylar va savdo sanoat ahli vakillaridan saylangan majlis va nozirlar kengashi tuziladi. Ular xalq vakilligi boshqaruvi organlari sifatida xon xokimiyati vakolatlarini ma'lum darajada chekladi.

Ammo oradan ko'p vaqt o'tmay Isfandiyorxon o'zini o'nglab olgach Rossiya muvaqqat hukumatining Xivadagi vakilidan yordam so'rab Yosh xivaliklarni xibsga ola boshladi. Natijada Isfandiyorxon o'zining layoqatsizligi va kaltafahmligi tufayli Xiva xonligni tanazzulga yuz tutishiga bosh sababchi bo'ldi.

Umuman olganda Turkiston o'lkasining XX asrning 20 yillariga kelib butunlay Sovet Rossiyasiga qaram bo'lib qolishi, bu o'lkada yashayotgan xalqlarning og'ir ahvolini yanada fojeali kechishiga zamin hozirladi.

Fitrat fevral inqilobi bilan oktyabr voqiyalari o`rtasida kechgan davirda “Hurriyat ” gazetasida “Yurt qayg`usi ” deb nomlangan she`r va sochmalar turkumini e`lon qilib, parokanda holda yashayotgan vatandoshlarida birlashish va istiqlol yo`lida kurashish tuyg`usini uyg`otmoqchi bo`ldi.

“Ey ulug` Turon, arslonlar o`lkasi! Senga ne bo`ldi? Holing qalaydir? Nechuk kunlarga qolding?”⁷⁰ Fitrat ushbu sochmasida she`r imkoniyatlaridan foydalanib bevosita xalqqa murojaat etish, uning ko`zlarini ochishga intilgan bo`lsa, boshqa sochmasida Turkiston yurtini g`arib bir ona sifatida tasvirlagan. U ana shu onaga murojat qilib shunday yozadi. “Ey mungli xotun sen kimsan? Ey gamli ona, nechuk mundan ayrilmaysan? Yonimda, ko`zimda, miyamda, yuragimda nima axtarasan, nechuk ketmaysan? Qayg`u tutunlari ichra yog`dusiz qolg`an ko`zlaring, u yosh yomg`irlari nechun to`kadur? Zulm zanjirlari bilan bog`langan qo`llaring nechun xar yonga uzatiladir, nima tilaysan?”⁷¹ lirik qaxromon bu ayol qiyofasida o`z vatanini ko`rgach, Fitrat bunday olovli so`zlarni aytadi: “Oh... Bildim ... bildim ... Angladim! Sen Mening Vatanimsan Vatanimning mungli hayolisan. Ey muqaddas Turonimning hayoli, ketmay tur ayrilma. Yonimda ko`zlarimda, yuragimda, vijdonimda qol, ketma. Turonim, sendan ayrilmoq- mening uchun o`limim. Sening uchun o`lmoq- mening tirikligimdir.”⁷² Fitrat ana shu tarzda o`z asarlaridagi maqsad vazifalarni ochib berishga harakat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, uning asarlarini maqsad vazifasi mudroq xalqni nafaqat uyg`otish, birlashtirish balki, milliy mustaqillik jabhalariga ham olib chiqish edi. Ming yillik tarixga ega bo`lgan adabiyotimiz taraqqiyotining boshqa biror bir davrida bunday ulug` maqsad, bunday izchillik bilan olg`a surilmagan. Xalq adabiyot namoyondalarini asarlarini o`qib kurashga chiqmagan. Shuning uchun ham yangi tasvir vositalarini yangi davr adabiyoti topishi va xalq ongiga

⁷⁰ Fitrat Tanlangan asarlar III-jild T.Yurt qayg`usi she`ri “Ma`naviyat” 2003 yil 31-bet

⁷¹ O`sha asar 32-bet .

⁷² O`sha asar 33-bet.

ta`sir o`tkazishning yangi yo`llarini axtarishi lozim edi. Fitrat boshliq bu davr mutafakkirlari shunday vosita va yo`llarni publisistik va hajviy she`riyatda, xalq og`zaki ijodida, dramaturgiyaning jangovor janrlarida topdilar. Cho`lpon, Tavallo, Kamiy, L.Olimiy, M.Siddiqiy singari shoirlar xalqning basirat ko`zlarini ochishga alohida e`tibor qaratdilar.

XULOSA

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida xalqaro munosabatlarda Sharq mamlakatlarining taqdiri, rivojlangan Yevropaning bir qator ilg'or davlatlari xohish istaklariga qarab belgilangan. Buning eng asosiy sabablari Ijtimoiy iqtisodiy, ma'naviy-madaniy, fan-texnika hamda qurollanish jihatidan G'arbning Sharqqa nisbatan ilgari ketganligida edi. Bu davrda Sharqning bir qismi hisoblangan hozirgi O'zbekiston hududi tarkibiga uch davlat birlashmasi: Rossiya Qo'qon xonligini bosib olgandan so'ng uning o'rnida tuzilgan va uning tarkibiga mustamlaka sifatida qo'shib olingan Turkiston general-gubernatorligi shuningdek, yuzaki ravishda mustaqil bo'lgan, ammo Rossiyaga qaram hisoblangan Buxoro amirligi va Xiva xonligi kirar edi.

Abdurauf Fitrat o'z qarashlarida bu uch davlat o'rnida yagona Turkiston davlatini bunyod etish, konstitutsion parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy pul birligini joriy qilish va milliy qo'shin tuzish singari xalqparvar g'oyalarni ilgari suradi.

Abdurauf Fitrat siyosatchi olim sifatida tarix falsafasi nuqtai-nazaridan tarixiy qonuniyatlarni ayrimlarini Turkiston tarixi misolida ko'rsatadi yoki asoslaydi:

- Abdurauf Fitratning siyosiy sohadagi har bir maqolasini oliy o'quv yurtlari, kollej va boshqa o'quv yurtlarida, O'zbekiston tarixi, jahon tarixiga tegishli bo'limlarida, ayniqsa XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridagi davr tarixini o'rganishda foydalanish mumkin. Bizning fikrimizcha Abdurauf Fitratning yuqorida ko'rsatilgan asarlarida Turkistonning XX asr boshlaridagi siyosiy-iqtisodiy iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy ahvoli chuqur tahlil qilingan.

Abdurauf Fitrat siyosatchi olim sifatida Turkistonning tushkunlik holatini sabablarini ochib bera olgan. Turkistonning og'ir tushkunlikdan chiqarish yo'llarini aniq va ravshan ko'rsatib beradi. Siyosiy jarayonlar,

mustamlakachilarning Sharq dunyosiga tazyiqlarini chuqur tahlil qilgan holda , Sharq dunyosini og'ir ahvolini e'tirof etadi.

Turkistonning bu ahvoldan qutqarish uchun tayyor bo'lgan ijtimoiy siyosiy kuchlarni ko'rsatib, ularning imkoniyatlarini va hatto kundalik nima ish qilishlarini ham ko'rsatib beradi. Turkistonni mustamlaka bo'lishini aybdori bo'lgan rus mustamlakachilarini siyosatini og'ir oqibatlarini ochib beradi.

Abdurauf Fitrat Turkistonning siyosiy holatini boshqa Sharq mamlakatlarini ahvoli bilan qiyoslab tahlil qiladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi xalqaro munosabatlarda Buxoro amirligi va Xiva xonliklari faol ishtirk eta olmadi. Chunki bir tomondan rus davlatining mustamlakachilik ta'siri bo'lsa, ikkinchi tomondan bu davlatlar boshqaruv tizimining qoloqligi, iqtisodiy siyosiy chuqur tushkunligi ekanligini yaqqol ko'rsatib berdi.

XX asr boshlarida Sharqning Afg'oniston, Hindiston, Xitoy, Turkiya singari davlatlari xalqaro munosabatlarda yarim qaram davlatlar bo'lib rivojlangan G'arbning o'yinchog'I bo'lib qolgani atroflicha olim tomonidan tushuntiriladi.

Bu haqda Fitrat "Afg'on hukumatining urushg'a qotishmog'i mumkindir, uning kuchi bordir, ehtimolkim, vaqti dahi bo'ladir; lekin biz umid qilamizkim, Afg'on hukumatining bu harakati Angliz foydasi uchun emas, german va turk pilonlarig'a muvofiq bo'lmoq sharti bilan o'z foydasi uchun bu harakat Hindistong'a qarshi bo'lg'ulidir."⁷³ -degan fikrlarni keltiradi. Bu xulosa Fitratning G'arbni zo'ravonlik diplomatiyasini aniq tasviridir.

U yana so`zida davom etib "ammo Angliz va Chin ittifoqi mumkindir. Chin xukumati Japun tazyiqotindan qutulmoq va o'lkasining rus nufuzi ostida qolg'an qisminda o`z huquqini tasdiq eturmak uchun Angliz davlatining turli xizmatlarig'a hozirdir. "⁷⁴ Bu yerda Fitrat XX asr boshlaridagi Angliya va Xitoy o`rtasidagi xalqoro munosabatlarni ochib berishga harakat qiladi, shuningdek xalqoro

⁷³ Fitrat Tanlangan asarlar III-jild Angliz va Turkiston maqolasi T. "Ma'naviyat" 2003 yil 204-bet

⁷⁴ O`sha asr 204- bet.

munosabatlarda yetakchi davlatlarni qoloq davlatlar hisobidan o'z g'arazli manfaatlari yo'lida foydalanayotganini fosh qildi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib xalqaro munosabatlarda O'rta Osiyo davlatlari va Rossiya o'rtasidagi munosabatlar ham alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa bu jarayon XX asr boshlariga kelib kuchayib ketdi.

Mazkur dissertatsiya ishidan oily o'quv yurtlarida, kollejlarda, maktablarning yuqori sinf o'quvchilarga o'tiladigan "O'zbekiston tarixi", "Jahon tarixi", "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" kabi darslarda va bu darslarga tegishli bo'limlarda, ayniqsa XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi davr tarixini o'rganishda foydalanish mumkin.

Bundan tashqari ushbu dissertatsiya ishidan keng auditoriyalarga mo'ljallangan maruzalar tayyorlash mumkin. Shuningdek "Siyosatshunoslik", "Madaniyatshunoslik", "O'zbekiston tarixi" va "Jahon tarixi" darslari uchun darsliklar, o'quv qo'lanmalari hamda maruzalar matni tayyorlashda fodalanihsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Demak A.Fitrat ko'z oldimizda xalqaro munosabatlarda XIX asr oxiri XX asr boshlarda Sharq mamlakatlarining o'rnini atroflicha tahlil qilgan siyosatshunos olim sifatida gavdalanadi. Abdurauf Fitrat ko'p qirrali faoliyatni amalgam oshirgan yerik olim XX asr boshlarda Turkiston ozodligi uchun bor kuchini ayamay faoliyat ko'rsatgan yerik olim va vatanparvar siyosiy arbob sifatida taniladi. Abdurauf Fitrat Buxoro jadidlari ichida ko'zga ko'ringan "Yosh buxoroliklar" partiyasining so'l qanotini ilg'or iqtisodiy va siyosiy talablarini shakillantirgan yo'l boshchisi bo'ldi. Abdurauf Fitrat siyosatshunos olim sifatida Sharq dunyosini XIX asr oxiri va XX asr boshlarida G'arbning rivojlangan mamlakatlariga qaramligini batafsil aniq misollar bilan tavsifladi. O'zining qator ilmiy maqola va risolalarida G'arb dunyosining Sharqqa nisbatan mustamlakachilik siyosatini usha davr xalqaro munosabatlarida ko'rsatdi.

Afg'oniston, Hindiston, Eron, Xitoy, Turkiya kabi davlatlarning Angliya, Rossiya boshqa davlatlar bilan bo'lgan xalqaro munosabatlari orqali ularning

yarim qaramlik sabablarini ochib berdi. O`zining qator maqolalarida Sharq va G`arb dunyosini tahlil qilgan holda o`zining maqolalarida, qachonlardir, madaniyat-ma`rifatning o`chog`i bo`lgan Sharqning XX asr boshlaridagi har tomonlama chuqur tanazzul holatini ko`rsatdi. “Ovropoda bir mahalla oqsoqolliq`i yo`q ekan, Sharqning “Ko`zquchinos”, “Barahma”, “Iso”, “Zardusht” va Muhammadlari butun odam o`g`illarini bir nuqtada to`plab to`g`ri va bilgili yo`lg`a kirguzmak uchun tirishar edilar. Chinlilar yozish uchun qog`oz yasag`anda ovrupolilar o`ng va so`l qo`llarini bir-biridan ayira olmas edilar” (22-23 betlar) Bu tanazzulning sabablarini inkor qilib bo`lmaydigan aniq dalillar asosida asoslab berdi.

Abdurauf Fitrat Turkiya, Eron, Xitoy, Afg`onistonning XX asr boshlardagi qoloqlik, xalqaro maydonda, xalqaro munosabatlarda qaramligini o`z asarlarida aniq tadqiq qildi. Eron davlati misolida Abdurauf Fitratning quyidagi fikrlari diqqatga sazovvordir. “Mustaqil bir Sharq davlati bo`lg`on Eronning buyuk mujtahidlari Rossiya va Angliz konsullarining tilaklari bilan dorg`a osildilar. Nikolay hukumati zamonida rus qo`shini Imom Alirizoning sharafini to`pga tutdilar, Anglizlar butun musulmon dunyosining muqaddas imomi bo`lgan Hazrat Alining ravzasig`a to`p otdilar...” (26 bet)

Shuningdek Abdurauf Fitrat Xitoyda bir necha yuz yil davomida Sin sulolasining xalqaro munosabatlarda tizimli ravishda mamlakatni tashqi dunyodan ajratib qo`yga yopiq eshiklar siyosatini fojeali oqibatlarini o`zining “Sharq siyosati” nomli hajmi kichik lekin, mazmun-mohiyati keng bo`lgan siyosiy asarida batafsil asoslab bergan. Jumladan, “Och qornim tinch qulog`im deb o`tirgan” siyosat dunyosining hech bir ishiga qatnashmagan Chin halqining dag`i rohati shul Ovropa jahongirlari tomonidan buzildi.” (27-28 betlar).

Sharq davlatlarining rivojlangan Yevropa davlatlari tomonidan asoratga solinish sabablarini ochib beradi. Mustamlakachi davlatlar iskanjasidan qutilish yo`llarini ishlab chiqadi.

Abdurauf Fitratning “Sharq siyosati” risolasi birinchi jahon urushidan keyin davom etayotgan va urushda qatnashgan Yevropa mamlakatlarining Sharqni o`zro bo`lib olish siyosatiga qarshi milliy ruhda yozilganligi bilan alohida ahamiyatlidir.

Fitrat ushbu asarida “Sharqning eng yog`li qismlari bo`lg`on Misr va Hindiston Angliz qo`Linda edi. Shuning uchun boshqa jahongir davlatdan shunga ko`z tikdilar. Rusiyaning Turkistonni olishi Fransiyaning Misrga istiqlol tilovlari, Olmoniyaning Turkiyaga yaxshiliklari barchasi shul “Hind uchun kurash” degan masaladan chiqg`an edi. Yo`qsa, Fransiyaning Misr musulmonlarig`a do`stligi, Olmoniyaning Turkiyaga do`tligi kabi yolg`on va bo`sh edi. “Hind uchun kurash” degan masala bora-bora ulg`aydi, “Sharq uchun kurash” shaklini oldi. Ovrupa jahongirlarining har biri Sharqqa hokim bo`lmoqlik uchun o`zgasining ko`zini chuqarmoqchi edi. “Sharq” degan bu go`zal sevgili xonini butun o`ziniki qilib olmoq uchun engtirishgan davlat Rusiya Imperato`rlig`i edi”⁷⁵-degan fikrlarni keltiradi.

Sharqning eng ko`zga ko`ringan 500 yildan ortiq G`rb dunyosi bilan raqobat qilgan, Sharq dunyosining eng qudratli bo`lgan imperiyasi XIX asrdan tanazzula yuz tutgan Ysmoniylar davlatining ayanchli ahvoli G`arbning rivojlangan mamlakatlari uchun yog`li luqma bo`lib o`layotgan ulkan boy hududlari bosib olinayotgan jonsiz davlat sifatidagi Turkiyaning ayanchli holatini atroflicha tasvirladi. “Angliz, Fransuz jaxongirlarining Turkiya o`lkasida qilg`an ishlari davlatlar huquqiga, insof va adolat qonuniga butun muholifdir” (29 bet) “Turkiyaning toshlar va kesaklaridan har birini ko`tarib qarag`anlar Ovrupalilar tomonidan to`kilgan qon tomchilarig`a uchrarlar. Turkiyaning doxiliy ishlarig`a qo`l uzatmoq, Turkiyaning taraqqiy yo`lini bog`lamoq, Turkiya hukumatining e`tiborini yo`q qilmoq ovrupalilarg`a o`yinchoq bo`lib qolg`an edi”⁷⁶ -degan fikrlari bilan Turkiyadagi ijtimoiy siyosiy vaziyatini tushuntirishga harakat qiladi. -

⁷⁵ Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. “Sharq siyosati” T.:”Ma`naviyat”. 2003 yil. 223-bet.

⁷⁶ Qarang.A.Fitrat. Tanlangan asarlar Toshkent “Ma`naviyat” 2003 yil Sharq siyosati 222-bet

demak Abdurauf Fitrat Yevropaning rivojlangan mamlakatlarining Sharqqa nisbatan mustamlakachilik siyosatini atroflicha o'rganib, xolisona ochib beradi.

-siyosatshunos olim sifatida har bir Sharq mamlakati misolida (Eron, Xitoy, O'rta Osiyo, Hindiston, Afg'oniston) Yevropaning munosabatini chuqur tahlil qiladi.

-olim o'zining "Sharq siyosati" asarida ilgari surilgan fikrlar siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy yo'nalishlarda Sharq dunyosining zaif tomonlarini ochib bergan.

-siyosatshunos olim sifatida Abdurauf Fitrat tadqiqotda qiyosiy tahlil metodidan atroflicha unumli foydalangan.

Siyosatshunos olim sifatida Abdurauf Fitrat rus mustamlakachiligining fojiali oqibatlarini keng qamrovli tasvirladi va rus mustamlakachiligi natijasida Turkiston xalqlarining ilg'or va zamonaviy madaniyatdan ajralib qolganligini o'zining bir qator asarlarida asoslab berishga harakat qiladi. U shuningdek Turkiston fuqorolarining Yevropadagi ijtimoiy iqtisodiy hamda siyosiy fikrlardan bexabar ekanligini afsus bilan etirof etadi. Jumladan uning "Turkistonda ruslar" nomli maqolasida shunday fikrlarga duch kelamiz. "Yurtimiz ellik yillik bir askariya ostida turdig'i uchun biz Ovrupaning madaniy millatlari bilan ko'risholmadik, unlarning ijtimoiy va iqtisodiy fikrlaridan istefoda qilolmadik. Bizning ko'zlarimizni ochdurmaslik uchun, fikri ochiq totor qarindoshlarimizning daxi Turkistonda maktab ochmoqlari man etildi."⁷⁷

Rus mustamlakachiligini og'ir asoratlaridan biri o'lkamizning madaniy jihatdan Yevropani fan-texnika, markazlaridan uzib qo'yilganini og'ir fojeali natijalarga olib kelganini ko'rsatib berdi. Bu yerda mustamlakachilarning aynan Turkistonni mahdudlikda uzoq ushlab turishni makkorona yo'lini tanlaganini fosh qiladi.

Rus hukumati Markaziy Osiyoni bosib olgandan so'ng o'zining mustamlakachilik siyosatini yurita boshlagan edi. Bunda tashkil qilingan Turkiston general gubernatorligi muhim rol o'ynaydi. Bu general gubernatorlik 50 yil (1867-

⁷⁷ A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild "Turkistonda ruslar" maqolasi T. Ma'naviyat 2003 yil 202-bet.

1917) davomida markaz tomonidan tayinlangan general gubernatorlar tomonidan qattiqqo`llik va jabr zulm asosida boshqarildi.

Siyosatshunos rus mustamlakachilarining uzoqqa muljallangan mustamlakachilik siyosatini chuqur tahlil qilgan holda ular yuritgan siyosatni siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy jihatlarini ochib berdi.

Rossiya davlatida bo'layotgan bu ichki siyosiy nizolarni sergaklik bilan kuzatgan Fitrat Turkiston xalqlari qanday yo'l tutishi kerakligini aniq bayon qiladi.

"Biz Turkistoniylar uchun har holda Kerenskiychilar bilan bolsheviklar orasindag'i kurashni bitib ketmadigini ko'zda tutib o'z yo'llarimizni shunga ko'ra tayin etmak kerakdir"⁷⁸ -degan fikrga keladi. Bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelishi bilan vaziyat tubdan o'zgaradi. Ular ilgari surgan komunistik mafkura Turkiston xalqlari uchun mutloq yot tushuncha edi. Shuning uchun ham mahalliy aholi bu mafkurani avval boshdanoq o`ziga singdira olmadi. Bundan tashqari sovet hukumati o`rnatilgan dastlabki kundanoq unga mahalliy aholi jalb etilmadi yoki har xil bahonalar bilan davlat boshqaravida mahalliy aholi vakillarini kamaytirishga harakat qilingan.

Abdurauf Fitrat fidoiy, vatanparvar olim sifatida dunyo tarixini tahlil qilgan holda XX asr boshlarida rus mustamlakachilari zulmi ostida qolgan Turkistonning fojiali ahvoli to'g'risida shunday deydi: "Aniqdirki, hech qaysi millat hech bir zamonda bizda bo'lganidek yurti xaroblik, xalqi falokat, ayonlari pastkashlik, idora ahli fasod, zolimlarning qon so'rishi, ajnabiylar kalakalari, istiqbolining mushkulligi kabi illatlarga muhtalo bo'lmagan!"⁷⁹ Bu fikrlari bilan A. Fitrat boshqa Sharq mamlakatlarining qaramlik ahvolini tahlil qilgan holda, ulardan ko'ra Turkiston o'lkasini ahvoli naqadar og'irligini chuqur qayg'u bilan yozadi. Fitrat Turon xalqi boshiga tushgan og'ir musibatning bosh sababi sifatida shu zamin farzandlarining harakatsizligi va jur'atsizligini ko'rsatadi. U o'zining "Yurt

⁷⁸A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild "Siyosiy hollar" maqolasi T. Ma'naviyat 2003 yil 198-bet

⁷⁹ A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild Buxoro vaziri Nasrullohbey parvonachi afandi hazratlariga ochiq maktub. T."Ma'naviyat" 2003 yil 226-bet.

qayg'usi" nomli she'rida sobiq qiron Amir Temur ruhiga murojaat qilib "Sening Turoningni o'zim talatdim, Sening turkligingni o'zim ezdirdim, Sening omonatlaringga xiyonat o'zim qildim. Men uch kunlik umrimni tinchgina yozib o'tkazmoqchi bo'lmasa edim shularning birortasi bo'lmas edi."⁸⁰--degan achchiq fikrlarni keltiradi. Yurt ozodligi yo'lidagi harakatlariga madad berishini so'raydi. "Ey arslonlar arsloni, Mening yozuqlarimdan o't, Meni qo'limni tut, Belimni bog'la, muqaddas fotihangni ber! Sening dunyoga sig'magan g'ayratingga ont ichamanki, Turonning eski sharaf va ulug'lig'ini qaytarmasdan burun ayog'laringda o'tirmasman."⁸¹ Fitratning usbu so'zlari Turkiston ozodligi masalasini o'z umrining mazmuni deb bilganligini isbotlab turibdi.

Olim siyosiy-ijtimoiy nohaq idora usuli va chet elliklarning yurtimizga past nazar bilan qarashini bir jumlada asosli qilib tushuntirib beradi. Buxoroning ilg'or vatanparvar ziyoli kishilari mamlakatni og'ir tushkunlikdan qutqarish, mavjud ahvolni hech bo'lmasa yengillashda amir hukumatining millatni dardini tushunadigan oliy amaldorlaridan biri vazir Nasrullohbey parvonachidan umidvor bo'ladilar. Fitrat bu amaldorga ochiq makutub bilan murojaat qiladi va Buxoroning barcha ilg'or kishilarini vatanni qutqarish uchun dadil harakat qilishini yolvorib so'raydi: "Ra'iyat orasida sizga nisbatan ixlos va muhabbat bor, bu yaratganning karamidirki, sizni favqulodda nufus soxibi qilib boshimizga yubordi. Oliy hazrat tojdor padari buzrukvorimiz, adolatparvar podshohimiz bizni tarbiyat va tanzim etmak amrini sizga bergan. Ne to'siqki, sizni bu muqaddas xizmatdan qaytarsin. Magar boshqalar g'aflatda qolgan bo'lsalar, Siz-da g'aflat qilmang. Boshqalar g'aflatining tashvishi Sizning g'aflatingizchalik bo'lmaydi".⁸² Abdurauf Fitrat ushbu fikrlari bilan amirlikning qoloq idora usuli xalqni kulfatini

⁸⁰ A.Fitrat Tanlangan asarlar I-jild Yurt qayg'usi she'ri T. "Ma'naviyat" 2000 yil 34-bet.

⁸¹ A.Fitrat Tanlangan asarlar I-jild Yurt qayg'usi she'ri T. "Ma'naviyat" 2000 yil 35-bet.

⁸² A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild Buxoro vaziri Nasrullohbey parvonachi afandi hazratlariga ochiq maktub. T."Ma'naviyat" 2003 yil 227-bet.

yengillashtirmasligini tushunar hamda hech bo'lmaganda o'tkir fikrli amaldorlarni xalq manfaati yo'lida jadal faoliyat ko'rsatishga undaydi.

Sharqning butun ishlari ongsiz beklar, tushunchasiz xonlar, miyasiz mo'llalar, bilimsiz eshonlarning qo'lga o'tdi. Bunlar Sharqning butun tuzuk va intizomini buzib yubordilar. Xonlar o'z qorinlarini to'ydirmoq uchun xalqni bir-biri bilan urishtirdilar, mamlakatni jonli va muhim o'rinlarini sotdilar, mo'llalar o'z istavlarig'a din otini toqib bozorg'a chiqardilar, din, tangri, payg'ambar, uchmox va tamug' orqali Sharq xalqini talay boshladilar. Sharqning taraqqiy yo'li ko'mildi.”⁸³ Sharq dunyosining G'arb zulmi ostiga tushib qolishini birinchi sababi sifatida ilm-fan va kasb hunarni rivojlantirilmaganligini ko'rsatadi. Ikkinchi bir sabab qilib jamiyat ijtimoiy qatlam va guruhleri o'rtasida birdamlikni yo'qligini, jamiyatni ma'naviy buzuqlik aynishlar hamda, vatan manfaatlariga xiyonat qilish, sotqinlik ekanligini ko'rsatadi: ayniqsa diniy mutassiblik, aqidaparastlik Sharq dunyosini tanazzulga olib kelganini aytadi. Diniy tashkilotlarning ularning xizmatchilarini o'z g'arazli manfaatleri yo'lida xalqni bilimsizlikka duchor qilganlarini fosh qiladi. Bundan tashqari mamlakat hukumdorlari mol-dunyo to'plash yo'lida xalqlarni o'rtasida nizo chiqarib boylik toplamoqchi bo'lganliklarini ochib tashlaydi. Abdurauf Fitrat bunday sabablar natijasida Sharq dunyosini kelajak taraqqiyoti yo'qligi xulosasiga keladi. Olim metropoliyalardagi siyosiy-iqtisodiy jarayonlarni ijobiy-salbiy oqibatleri mustamlakalarga ham ta'sir qilganligini asoslab berdi.

Muxtasar qilib aytganda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Sharq mamlakatlari rivojlangan Yevropa davlatleri tomonidan asoratga solingan edi. Vatanparvar siymolar qatorida Abdurauf Fitrat ham alohida xizmatleri bilan o'z ona vatanini ozod qlish g'oyasini ilgari surdi. Bu harakatlari bilan u bugungi mustaqil davlatimizning asrlar davomidagi orzu-intilishini ro'yobga chiqarishda, xalqimizning ma'naviyatining tiklanishida ham o'z hissasini qo'shdi.

⁸³ A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild Siyosiy xollar maqolasi T. "Ma'naviyat" 2003 yil 215-bet.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.T. "O'zbekiston". 2003.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi qonun".T. 1997.
3. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi". T. 1997.
4. I.A. Karimov. "Eng asosiy me'zon hayot haqiqatini anglash". 2009-yil.
5. I.A. Karimov "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. " T. "O'zbekiston", 2000-yil.
6. I.A. Karimov "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda." T. "O'zbekiston", 1999-yil
7. I.A. Karimov "O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz." T. "O'zbekiston", 1999 yil.
8. I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch." T. Sharq, 2007-yil.
9. I.A. Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q." T. "Sharq" 1998-yil
10. A. Fitrat "Tanlangan asarlar" I-jild, T. "Ma'naviyat" 2000-yil
11. A. Fitrat "Tanlangan asarlar" II-jild, T. "Ma'naviyat" 2003-yil
12. A. Fitrat "Tanlangan asarlar" III-jild, T. "Ma'naviyat" 2003-yil
13. A. Fitrat "Tanlangan asarlar" IV-jild, T. "Ma'naviyat" 2006-yil
14. A. Fitrat "Najot yo'i" T. "Sharq" 2004-y
15. A. Fitrat Chin sevish T. "Adabiyot va san'at" 1996-yil
16. A. Fitrat Oila. T. "Ma'naviyat" 1998-yil
17. Abdurashidxonov M. S. "Xotiralarimdan " (Jadidchilik tarixidan lavhalar) T. "Sharq" 2001 -yil
18. "O'zbekistonning yangi tarixi" konseptual metodologik muammolar" mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari T."Akademiya" 1998.
19. Alimova D. Golovanov A. O'zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida , siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari (1917-1990) T. "O'zbekiston" 2000-yil.
20. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi." 9-tom, T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.", T. 2005-yil

21. "O'zbekistonning yangi tarixi (ikkinchi kitob) O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida Toshkent. "Sharq" 2000-y.
22. Begali Qosimov "Milliy uyg'onish" jasorat ma'rifat fidoiylik.T. "Manaviyat" 2002-yil.
23. T. Qahhor "Hur Turkiston uchun" T. "Ma'naviyat 2000-y.
24. N. Naimov "Fitrat fojiasi" T. "Fan" 2005-yil
25. Oyina (1914-1915 y) O'zbekiston Res-si prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi T. "Akademiya" 2001-yil.
26. I. G'aniyev "Fitratshunoslik" Buxoro 1995-y
27. I. G'aniyev Fitratning tragediya yaratish mahorati T. "Adabiyot va san'at nashriyoti" 1994-y.
28. N. Yo'ldoshev A. Fitratning "Rahbari najot" asaridagi muxtasar fasllar Buxoro 1996-yil.
29. Sh. Abdusalolova A. Fitratning oila va bola tarbiyasiga oid qarashlari. T. "Yozuvchi" 2002 yil
30. Fitrat A. Muxtoriyat Fan va Turmush 1990 yil 10 son 8-9 betlar.
31. "Barkamol avlod orzusi" T. "Sharq" 1999-yil.
- 32 "Novyeshaya istoriya Indii" M. 1979-g
33. "Novaya istoriya stran Azii i Afriki " Moskva 1988-g.
34. Ivanova M.S "Novyeshaya istoriya Irana" M. Nauka 1985-g.
35. Yusupov Sh. "Xufiya qatlamlar" T. "Ma'naviyat" 1999-yil.
36. Jadidchilik, islohot, yangilanish mustaqillik va taraqqiyot uchun kursh (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar) Davriy to'plam T. "Universitet" 1999-yil.
37. Lafasov M. To'rayev I. "Jahon tarixi" T. 2005-yil.
38. Ijtimoiy fikr-inson huquqlari jurnali, 2006-yil, barcha sonlari.
39. Mahmudova G. "Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti" T. "Davr -taraqqiyoti" 2006-yil.

40. Ziyoyev H. "Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash" Toshkent, "Sharq" 1998-yil.
41. Ibrohimov A. Sulstonov X. Jo'rayev N "Vatan tuyg'usi" T. "Sharq 2006-yil
42. Ziyoyev H. "O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida" T. "Sharq" 2006 yil.
43. Shamsutdinov R. "Qatag'on qurbonlari" T. "Sharq" 2007-yil.
44. Guliston jurnali, 1,2,3,4,5,6 -sonlari 1996 yil.
45. "Xalq so'zi" gazetasi 1993-yil, 1,2,3,4 sonlar
46. Munavvar Qori Abdurashidxonov "Tanlangan asarlar" T. "Manaviyat" 2003-yil
47. "Tarix shohidligi va saboqlari chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida (O'zbekiston milliy boyliklarining o'zlashtirilishi." T. "Sharq" 2001-yil.
48. Madraimov A. Fuzailova G. "Manbashunoslik" Toshkent, "O'zbekiston faylasuflari " 2008-yil.
49. Usmonov Q, Sodiqov M, Burxonova S, "O'zbekiston Tarixi" T. "Iqtisod-moliya" 2006-yil.
50. Shamsutdinov R. "Istiqlol yo'lida shahid ketganlar" T. "Sharq" 2001-yil.
51. Ahmedov B. "Tarixdan Saboqlar" T. "O'qituvchi" 1994-yil.
52. Abu Toxirxoja "Samariya", Narshaxiy "Buxoro tarixi" ,Bayoniy "Shajarai Xorazmshohiy, Ibrat "Farg'ona tarixi" T. "Kamalak" 1991-yil.
53. Ziyoyev X. "Tarix-o'tmish va kelajak ko'zgusi. T. G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2000-yil.
54. Jumaboyev F. "O'zbekiston xalqlari tarixi" T. "O'qituvchi " 1992-yil.
55. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" 12-jild, Toshkent "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" 2006-yil.
56. Tadjixanov I. "Yuridik Ensiklopediya" T. Sharq 2001 yil
57. "Xitoyning eng yangi tarixi" 1917-1927 yillar 1-tom, "Fan" nashriyoti 1988yil.
58. "Noveyshaya istoriya Kitaya" V. 1917-1990 qadar, 1992-yil.
59. "Jamiyat va Boshqaruv" jurnali, 2002-yil barcha sonlari.
60. Jo'rayev N. Agar ogoh sen... T.: O'zbekiston, 1998.

